$9 \text{ dm } 8 \text{ sm} = \square \text{ sm}$

$1 \text{ dm } 9 \text{ sm} = \square \text{ sm}$

$30 \text{ sm} = \square \text{ dm}$

$60 \text{ sm} = \square \text{ dm}$

16. Masalalar tuzing va ularni yeching:

1)



3 ta qo'y ketdi? Nechta qo'y qoldi?

2)



Hamma mushukchalar nechta?

17. Uyda o'nta tuxum bor edi, yana 4 ta tuxum sotib olindi. 11 ta tuxum ishlatildi. Nechta tuxum qoldi?
18. Qizcha 80 so'mga konfet sotib oldi. U 100 so'mdan necha so'm qaytim olgan?
19. Bir idishda 10 l yog' qoldi, ikkinchi idishda esa 7 l yog' qoldi. Ikkala idishda necha litr yog' qolgan?
20. Stolning balandligi 7 dm, stulning balandligi esa 4 dm. Stol stuldan necha detsimetr baland?
21. Komilda 30 ta marka bor edi. Tug'ilgan kuni unga yana bir nechta marka sovg'a qilishganidan keyin uning markalari 40 ta bo'ldi. Komilga nechta marka sovg'a qilishgan?
22. Bir kitob 97 so'm, boshqa kitob 90 so'm turadi. Birinchi kitob ikkinchisidan necha so'm qimmat?
23. Bizning uyda 70 kishi, qo'shni uyda esa undan 30 kishi ortiq yashaydi. Qo'shni uyda necha kishi yashaydi?
24. Do'konda bir kunda 7 ta bolalar velosipedi, undan 6 ta ortiq kattalar velosipedi sotildi. Hammasi bo'lib nechta velosiped sotilgan?
25. Zebida 9 ta katakli daftar va 4 ta bir chizikli daftar bor edi. U 2 ta katakli daftarini akasiga berdi. Zebida nechta daftar qoldi?
26. Bir tokchada 11 ta, ikkinchi tokchada 8 ta kitob bor. Navbatchi 16 ta kitob oldi. Tokchada nechta kitob qoldi?
27. Bolalar 6 tup terak, undan 5 tup ko'p tol ekishdi. Bolalar hammasi bo'lib necha tup daraxt ekishgan?

28. 1) Bir bankada 10 stakan sut, ikkinchi bankada esa 3 stakan kam sut bor. Ikkala bankada necha stakan sut bor?

2) Bir idishda 18 stakan sharbat, ikkinchi idishda undan 8 stakan kam sharbat bor. Ikkinchi idishda necha stakan sharbat bor?

29. 1) Nazira sigirdan bir kunda 16 l sut sog'ib oldi. U buzoqqa ertalab 2 l, kechqurun esa 3 l sut berdi. Yana necha litr sut qoldi?

2) Nodira bir kunda ola sigirdan 15 l, targ'il sigirdan esa 14 l sut sog'ib oldi. U buzoqlarga ertalab 4 l, kechqurun esa 6 l sut berdi. Yana necha litr sut qoldi?


30. Har qaysi ko'pburchakning nechtadan tomoni, nechtadan burchagi, nechtadan uchi bor?



31. Rasmlarni taqqoslang:



32. Rasmlarni taqqoslang:



## Sonli ifodalar

Yozuvlarni o'qing:

$$24 + 3 \quad 39 - 2 \quad 16 - 8 + 9 \quad 300 - (91 - 13)$$

Bular sonli ifodalar yoki, qisqacha, ifodalardir. Agar ifodada ko'rsatilgan amallarni bajarsak, ifodaning qiymatini hosil qilamiz. Bu ifodalarning qiymatlarini toping.

**245.** Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping: 76 va 4, 58 va 20, 3 va 22 sonlarining yig'indisi. 86 va 3, 67 va 60, 53 va 50 sonlarining ayirmasi.

**246.** Avtomobil ta'mirlash ustaxonasida 11 ta mashina ta'mirlanayotgan edi. Bir kundan keyin yana 5 ta mashina ta'mirlashga qo'yildi, 4 ta mashinani esa ta'mirdan so'ng qaytarildi. Ustaxonada nechta mashina bor?

1) Ushbu

$$11 - 5 + 4 \quad 11 + 5 + 4 \quad 11 + 5 - 4 \quad 11 - 5 - 4$$

ifodalar orasidan bu masala uchun tuzilgan ifodani toping va masalani yeching.

2) Masala shartini shunday o'zgartiringki, uni yechish uchun yuqorida yozilgan boshqa ifodalar ham yaroqli bo'lsin. Yangi masalalarni yeching.

**247.** Bir bidonda 7 litr, ikkinchi bidonda 5 litr sut bor edi. O'quvchilar nonushtasiga 8 litr sut ishlatildi.  $7 + 5$ ,  $7 - 5$ ,  $(7 + 5) - 8$  ifodalarning qiymatlarini hisoblab, nimani bilish mumkin?

248. Kitob 100 betli. Qizcha 69 betni o'qidi. U o'qiganidan nechta kam betni o'qishi kerak?

Yechilishi

1)  $100 - 69 = 31$

2)  $69 - 31 = \square$

Yechishni tugallang va uni tushuntiring.

249.


Qovoqning massasi 16 kg, tarvuzning massasi esa undan 7 kg kam. Tarvuzning massasi qancha?

250. Maktabda boshlang'ich sinflar 7 ta. Yuqori sinflar esa 5 ta ko'p. Maktabda sinflar hammasi bo'lib nechta?




### Sonli ifodalarni taqqoslash

251. Bu tengsizliklar qanday hosil qilingan?



$$5 + 2 > 5 + 1$$


$$7 > 6$$



$$5 - 2 < 5 - 1$$

$$3 < 4$$

252.



$$6 + 2 \dots 9 - 1$$

$$8 \dots 8$$



$$8 - 3 \dots 4 + 2$$

$$\square \dots \square$$

253. Qiymatlari 7 va 9 ga teng bo'lgan ifodalarni yozib oling:

$16 - 9$

$60 - 50 - 1$

$17 - (38 - 30)$

$47 - 40$

$70 - 60 - 3$

$14 - (11 - 4)$



254. Sayr vaqtida maktabdan istirohat bog'iga borish va qaytishga 20 minut sarflandi, bog'ning o'zida esa bolalar 40 minut sayr qilishdi. Bu sayrga hammasi bo'lib qancha vaqt ketgan?

255.

Qisqa yozuv va rasm bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching:

a) Bor edi — 9 kishi.  
Tushdi — 3 kishi.  
Qoldi — ?

b) Bor edi — 8 kishi  
va 7 bola.  
Tushdi — 4 bola.  
Qoldi — ?



256.  $16 + 42$        $11 - 6 + 8$        $38 + 6$        $65 - 8$



257. Qo'shiluvchilarni istalgan tartibda, qulay shaklda qo'shish mumkinligini Siz endi bilasiz. Bu qoidadan foydalanib, ushbu yig'indilarni hisoblang:

$$60 + 7 + 30 \qquad 5 + 10 + 5 + 80$$

$$40 + 9 + 20 \qquad 1 + 50 + 40 + 9$$

258. Ifodalarni ko'rib chiqing. Ularni shunday guruhlangki, har bir guruhga o'xshash ifodalar kirsin. Ularni turli ustunlarga yozing va hisoblashlarni bajaring:

$$79 - 9 - 1 \qquad 10 - (3 + 7) \qquad 95 - 5 - 1 \qquad 11 - 6$$

$$13 - 8 \qquad 8 + 9 \qquad 29 + (8 - 7) \qquad 5 + 9$$

259. Masalalarni turli usullar bilan yeching:

1) Bir bochkada 20 chelak suv, ikkinchi bochkada 15 chelak suv bor. Hovliga sepish uchun 5 chelak suv olishdi. Bochkalarda necha chelak suv qoldi?



2) Ko'zada 12 stakan sut bor edi. Sutli taom pishirish uchun 5 stakan, quymoq pishirish uchun 2 stakan sut ishlatildi. Ko'zada necha stakan sut qolgan?

**260.**  $47 + 2$      $58 - 4$      $36 + 4$      $60 - 3$      $40 - 5$   
 $47 + 20$      $58 - 40$      $85 + 5$      $70 - 32$      $100 - 6$


**261.**


Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 16 odam.  
 Tushishdi – ?  
 Qolishdi – 9 ta odam.

Bor edi – 15 dona.  
 Olishdi – 8 dona.  
 Qoldi – ?

**262.** Bunday shakllar chizing va ulardan har birining perimetrini toping:






## YUZ ICHIDA XONADAN O'TISH BILAN QO'SHISH VA AYIRISH

### Og'zaki qo'shish va ayirish usullari

- 263.** Shunday son qo'yingki, tenglik to'g'ri bo'lsin:
- |                     |                     |                     |
|---------------------|---------------------|---------------------|
| $26 + \square = 30$ | $47 + \square = 50$ | $81 + \square = 90$ |
| $88 + \square = 90$ | $34 + \square = 40$ | $53 + \square = 60$ |

Misolni o'qing. 5 sonini qanday qo'shilganligini rasmdan foydalanib tushuntiring:

$$38 + 5$$



$$38 + 5 = \square$$

$$\begin{array}{c} 2 \quad 3 \end{array}$$

$$38 + 2 + 3 = (38 + 2) + 3 = 40 + 3 = 43$$

264.  $67 + 8 = 67 + 3 + 5 = (67 + 3) + 5 = 70 + 5 = 75$

$$\begin{array}{c} \phantom{67 + 8} \\ \phantom{67 + 8} \diagup \phantom{67 + 8} \diagdown \\ 67 + 3 + 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 39 + 4 \\ \phantom{39 + 4} \diagup \phantom{39 + 4} \diagdown \\ 1 \quad 3 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 42 + 9 \\ \phantom{42 + 9} \diagup \phantom{42 + 9} \diagdown \\ 8 \quad \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 25 + 6 \\ \phantom{25 + 6} \diagup \phantom{25 + 6} \diagdown \\ 5 \quad \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 84 + 7 \\ \phantom{84 + 7} \diagup \phantom{84 + 7} \diagdown \\ \square \quad \square \end{array}$$

265. Ko'zadagi sutdan 6 piyola ichilganidan keyin unda yana 3 piyola sut qoldi. Ko'zada necha piyola sut bo'lgan?

266. Bolalar bog'chasiga 28 kg karam keltirishdi. Ertalab 8 kg, tushlikka ham shuncha karam ishlatishdi. Necha kilogramm karam qolgan?

 267. Uchta sonning yig'indisi 100. Birinchi son 51, ikkinchisi 26. Uchinchi sonni toping.

268.  $39 + 6$        $19 + 9$        $45 + 3$        $65 + 8$   
 $47 + 7$        $26 + 8$        $87 + 4$        $73 + 9$

269.  $59 + 6 = \underline{59 + 1} + 5 = 60 + 5 = 65$

$$\begin{array}{c} \phantom{59 + 6} \\ \phantom{59 + 6} \diagup \phantom{59 + 6} \diagdown \\ 1 \quad 5 \end{array}$$

$74 + 6 = \square$

$28 + 2 = \square$

$36 + 4 = \square$

$74 + 9 = \square$

$28 + 7 = \square$

$36 + 5 = \square$

$$\begin{array}{c} \phantom{74 + 9} \\ \phantom{74 + 9} \diagup \phantom{74 + 9} \diagdown \\ 6 \quad 3 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \phantom{28 + 7} \\ \phantom{28 + 7} \diagup \phantom{28 + 7} \diagdown \\ 2 \quad \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \phantom{36 + 5} \\ \phantom{36 + 5} \diagup \phantom{36 + 5} \diagdown \\ \square \quad \square \end{array}$$


270. Qandilda 7 ta lampochka yonib turgan edi. 3 ta lampochkani o'chirishdi.  $7 - 3$ ,  $(7 - 3) - 3$  ifodalarni hisoblab nimani bilish mumkin?

271. Avtosaroyda 40 ta avtomobil turibdi. Ularning 26 tasi yuk avtomobillari, qolganlari yengil avtomobillar. Yuk avtomobillari nechta ko'p?

Masalani reja bo'yicha yeching:

- 1) Yengil avtomobillar nechta bo'lgan?
- 2) Yuk avtomobillari nechta ko'p bo'lgan?

**272.** Shaklda nechta uchburchak, nechta to'rtburchak bor?



**273.**

$28 + 8$

$35 + 7$

$90 - 8$

$100 - 7$

$69 + 2$

$48 + 5$

$0 + 36$

$60 - 24$


**274.** Jadval bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Yana sotib olindi	Bo'ldi
25 kg olxo'ri	15 kg olxo'ri 10 kg olxo'ri	?



Misolni o'qing. 5 sonini qanday ayirilganligini rasmdan foydalanib tushuntiring:

$42 - 5$



$42 - 5 = \square$

$$\begin{array}{c} 2 \quad 3 \end{array}$$

$42 - 2 - 3 = (42 - 2) - 3 = 40 - 3 = 37$

275.  $87 - 9 = 87 - 7 - 2 = (87 - 7) - 2 = 80 - 2 = 78$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 87 - 7 - 2 \end{array}$$

$$42 - 6$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 2 \quad 4 \end{array}$$

$$57 - 8$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 7 \quad \square \end{array}$$

$$72 - 9$$


$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ \square \quad \square \end{array}$$

$$63 - 7$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ \square \quad \square \end{array}$$

276. Shaharga bir necha yuk mashinasida sabzavot keltirishdi. 7 ta mashinadan sabzavotlarni tushirib bo'lganlaridan keyin yana 8 ta mashina sabzavot qoldi. Shaharga nechta mashinada sabzavot keltirishgan?

277. Uchta kesma orasidan uzunligi uchburchak perimetriga teng bo'lganini ajratib oling:



278. Poyezd vagonida 97 ta yo'lovchi bor. Ularning 27 nafari erkaklar, 33 nafari ayollar, qolganlari bolalar. Shu vagonda nechta bola bor?

279.

Ozoda 11 ta shar rasmini chizdi. Ulardan bir nechtasini bo'yaganidan keyin yana bo'yaladigan 5 ta shar qoldi. Ozoda nechta sharni bo'yagan?

280.  $45 + 4$        $63 - 63$        $50 - 6$        $42 - 0$

  $9 + 7$        $14 - 9$        $12 - 8$        $57 - 57$

281.  $91 - 8$        $91 - 8 = (91 - 1) - 7 = 83$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 1 \quad 7 \end{array}$$

$$74 - 4 = \square$$

$$67 - 7 = \square$$

$$54 - 4 = \square$$

$$74 - 9 = \square$$

$$67 - 8 = \square$$


$$54 - 7 = \square$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 4 \quad 5 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ 7 \quad \square \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \diagup \quad \diagdown \\ \square \quad \square \end{array}$$

- 282.** Malikada 30 ta rasm bor edi. U 9 ta rasmni maktab devoriy gazetasiga, 7 ta rasmni dugonasiga berdi. Malikada nechta rasm qoldi?
- 283.** Qiymatlari 62 va 18 ga teng ifodalarni ko'chirib oling:



$69 + 1 - 8$	$32 - 4 + 2$	$7 + 43 + 6$
$46 + 4 - 3$	$11 - 8$	$74 - 9 - 3$
$57 + 3 - 8$	$27 - 5 - 4$	$9 + 9$
		$0 + 28 - 8$
		$9 + 53 - 0$

- 284.** Uy qurilishida 32 ta g'isht teruvchi, ulardan 5 ta kam bo'yoqchi ishladi. Uy qurilishida hammasi bo'lib qancha g'isht teruvchi va bo'yoqchi ishlagan?

**285.**

Har qaysi misolda qaysi sonni ikki qo'shiluvchining yig'indisi bilan almashtirish foydali?

$43 + 8$	$66 - 3$	$14 + 8$	$80 - 7$
$74 + 10$	$6 + 34$	$13 - 7$	$24 - 8$

**286.**



Qutida bir nechta qalam bor. Qutidan 3 ta qalamni olishganidan keyin unda 6 ta qalam qoldi. Boshida qutida nechta qalam bo'lgan?



- 287.** Yozuvlarni qarang va yig'indidan qo'shiluvchi ayirilganda nima hosil bo'lganini tushuntiring:

$$8 + 4 = 12 \qquad 12 - 8 = 4 \qquad 12 - 4 = 8$$

288. Noma'lum qo'shiluvchini qanday topishni tushuntirib bering:

$$\square + 7 = 10$$

$$8 + \square = 18$$



11

$$x + 3 = 11$$

$x$  (iks) harfi bilan topilishi kerak bo'lgan noma'lum son belgilangan.

$x + 3 = 11$  — bu tenglama.

Tenglamani yechamiz: tenglik to'g'ri bo'lishi uchun  $x$  ning o'rniga qanday sonni qo'yish kerakligini bilib olamiz. Bu son 8, chunki  $8 + 3 = 11$  — to'g'ri tenglik.

Tenglamaning yechilishi bunday yoziladi:

$$x + 3 = 11$$

$$x = 11 - 3$$

$$x = 8$$

---

$$8 + 3 = 11$$

289. Tenglamalarni yeching va to'g'ri yechilganligini tekshiring:

$$16 + x = 20$$

$$x + 5 = 31$$

290. Sharifa yong'oq daraxti tagidan 29 ta yong'oq topdi, Karima Sharifadan 6 ta ortiq, Ra'no esa Karimadan 9 ta kam yong'oq topdi. Ra'no nechta yong'oq topgan?





291.

Kashtachilik to'garagiga oldin 6 ta qiz bola yozildi, keyin yana 5 ta qiz bola yozildi. To'garakka nechta qiz bola yozilgan?

292.

$$33 + 9 \quad | \quad 90 - 70 - 7 \quad | \quad 67 + 8 \quad | \quad 4 + 32 - 26$$

$$44 + 6 \quad | \quad 52 - 30 - 2 \quad | \quad 25 - 9 \quad | \quad 9 + 21 - 30$$

293.

Yosh tabiatshunoslar bir tupdan 40 dona limon uzishdi, ikkinchi tupdan birinchiga qaraganda 6 dona kam, uchinchi tupdan esa ikkinchiga qaraganda 10 dona ortiq limon uzishdi. Ular uchinchi tupdan nechta dona limon uzishgan?

294.

Yozuvlarga qarang va ayirmaga ayriluvchini qo'shsak, nimani hosil qilishimizni tushuntiring:

$$10 - 3 = 7$$

$$7 + 3 = 10$$

$$3 + 7 = 10$$

295.

Noma'lum kamayuvchini qanday topish mumkinligini tushuntiring:

$$\square - 12 = 25$$

Tenglamani tushuntiring va uni yeching:



8

x

$$x - 3 = 8$$

$$x = 3 + 8$$

$$x = 11$$

$$11 - 3 = 8$$

296. Tenglamani yeching va to'g'ri yechilganligini tekshiring:

$$x - 7 = 11$$

$$x - 8 = 7$$

297.  $74 - 51$        $27 + 8$        $9 + 48$        $6 + 6 + 6 + 6$

298.

Qodir 27 betli ertak kitobni 2 kunda o'qib bo'ldi. U birinchi kuni 12 bet o'qidi, qolganini ikkinchi kuni o'qidi. Qodir ikkinchi kuni necha bet kitob o'qigan?

299. Misollarni tekshirish bilan yeching:



$$76 + 5$$

$$80 - 8$$

$$62 + 5$$

$$22 - 9$$

300. Yozuvlarga qarang va kamayuvchidan ayirmaning ayirganimizda nimani hosil qilishimizni tushuntiring:

$$20 - 6 = 14$$

$$20 - 14 = 6$$

301. Noma'lum ayiriluvchini qanday topish mumkinligini tushuntiring:

$$30 - \square = 25$$

$$45 - \square = 10$$

Tenglamani tushuntiring va uni yeching:



10 ta

$$10 - x = 4$$

$$x = 10 - 4$$

$$x = 6$$

$$10 - 6 = 4$$

302. Tenglamalarni yeching va to'g'ri yechilganligini tekshiring:

$$18 - x = 10$$

$$13 - x = 7$$

303. Avtobusda 30 ta yo'lovchi kelayotgan edi. Bekatda yana 4 ta ayol va 7 ta erkak kishi chiqdi. Avtobusdagi yo'lovchilar nechta bo'ldi? (Masalani ikki usul bilan yeching.)

304.

Kamayuvchi		24		60
Ayiriluvchi	4		28	
Ayirma	16	13	12	0

305.

Birinchi o'ramda 37 m, ikkinchi o'ramda 40 m arqon bor, uchinchi o'ramda esa birinchi va ikkinchi o'ramlarda birgalikda qancha bo'lsa, shundan 4 m kam arqon bor. Uchinchi o'ramda necha metr arqon bor?

306. Misollarni tekshirish bilan yeching:



$$39 + 6$$

$$70 - 9$$

$$32 - 8$$

$$41 - 6$$

307. Misollarda amallar qanday tartibda bajarilishini eslang.

10 sonidan 3 va 2 sonlari yig'indisini ayiring.

$$10 - (3 + 2) = 5$$

$$10 - (2 + 3) = 5$$

8 soniga 10 va 7 sonlari ayirmasini qo'shing.

$$8 + (10 - 7) = 11$$

$$8 + (10 - 7) = 11$$

Qavs ichiga yozilgan amallar birinchi bajariladi.

- 308.** Yozuvlarni o'qing va amallarni bajaring:
- |                |                  |                  |
|----------------|------------------|------------------|
| $70 + (6 + 1)$ | $80 - (20 + 30)$ | $(40 + 60) - 50$ |
| $(70 + 6) + 1$ | $(80 - 20) + 30$ | $40 + (60 - 50)$ |

- 309.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$40 - 10 + 20 = 50$	$80 - 30 - 20 = 70$
$80 - 50 + 10 = 20$	$100 - 40 + 50 = 10$

- 310.** Tenglamalarni yeching.

$x + 8 = 12$	$x - 9 = 6$	$17 - x = 9$
--------------	-------------	--------------

- 311.** Qisqa yozuvi bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

<p>Bor edi — 20 kg</p> <p>Sotildi — ?</p> <p>Qoldi — 7 kg</p>	<p>Bor edi — ?</p> <p>Sotildi — 8 m</p> <p>Qoldi — 7 m</p>
---	--

- 312.**
- |              |              |          |
|--------------|--------------|----------|
| $11 - 7 + 6$ | $90 + 0 + 4$ | $17 - 8$ |
| $12 - 6 + 7$ | $80 - 0 + 7$ | $17 - 9$ |
| $13 - 6 + 8$ | $0 + 60 + 2$ | $18 - 9$ |

### Mustahkamlash uchun mashqlar

**1.**

$35 + 6$	$76 + 6$	$59 + 6$	$37 + 7$	$87 + 5$
$43 + 8$	$67 + 8$	$73 + 9$	$68 + 8$	$28 + 4$

**2.**

$51 - 3$	$75 - 8$	$41 - 5$	$80 - 7$	$86 - 7$
$82 - 7$	$32 - 6$	$64 - 9$	$31 - 8$	$54 - 9$


- 3.** Duradgor 8 ta stul yasaganidan keyin yana yasalmagan 3 ta stul yasash qoldi. Duradgor hammasi bo'lib nechta stul yasashi kerak ekan?

4. Bolalar bog'chasiga 4 kg sariyog', sariyog'dan 10 kg ortiq konfet keltirildi. Bolalar bog'chasiga necha kilogramm konfet keltirilgan?
5.  $72 - 4$        $25 - 7$        $92 - 8$        $88 + 7$        $20 - 4$   
 $57 + 7$        $43 - 5$        $67 + 9$        $74 - 5$        $46 + 5$
6. 1)  $30 - 18$        $48 - 12$        $60 - 48$        $50 + 14$   
 $30 + 18$        $48 + 12$        $72 - 50$        $14 + 50$
- 2)  $16$        $18$        $56$        $64$        $95$        $99$   
 $+ 56$        $+ 49$        $+ 37$        $- 33$        $- 84$        $- 63$
7. Oshxonaga 45 l sut keltirishdi. Bir necha litr sut ishlatilganidan keyin 30 l sut qoldi. Necha litr sut ishlatilgan?
8. Qizchanning 15 so'm puli bor edi. Otasi unga 50 so'm pul berdi. U 60 so'mga kitob sotib oldi. Qizchanning qancha puli qoldi?
9. Guldastada 4 ta qizil atirgul, 3 ta pushti atirgul bor, qizil va pushti atirgullar nechta bo'lsa, shuncha oq atirgul bor. Guldastada nechta oq atirgul bor?
10. Dalada 35 kishi ishlayotgan edi, keyin yana 15 kishi keldi va boshqa ishga 17 kishi ketdi. Dalada necha kishi qoldi?
11. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:  
 $4 \text{ dm} \quad 5 \text{ sm} = \square \text{ sm}$        $6 \text{ dm} = \square \text{ sm}$   
 $40 \text{ sm} = \square \text{ dm}$        $75 \text{ sm} = \square \text{ dm} \quad \square \text{ sm}$
12. Qavslarni joyiga qo'ying:  
 $40 - 9 + 11 = 20$        $35 - 7 + 6 = 34$   
 $40 - 9 + 11 = 42$        $35 - 7 + 6 = 22$



**315.** Zavod ishchilari bir kunlik dam olish uyiga uch avtobusda jo'nashdi. Birinchi avtobusda 40 kishi, uchinchida birinchidagidan 6 kishi kam, ikkinchida esa uchinchidagidan 7 kishi ortiq. Ikkinchi avtobusda necha kishi ketgan?

**316.** Har qaysi shaklda nechtadan uchburchak, nechtadan to'rtburchak bor?



**317.**



$$70 + 15 \dots 70 + 18$$

$$30 - 6 \dots 30 - 9$$

Namuna:  $60 + 13 > 60 + 11$   
 $73 > 71$

**318.**



$\begin{array}{r} 42 \\ + \\ \hline 17 \end{array}$	$\begin{array}{r} 14 \\ + \\ \hline 45 \end{array}$	$\begin{array}{r} 72 \\ + \\ \hline 23 \end{array}$	$\begin{array}{r} 55 \\ + \\ \hline 21 \end{array}$	$\begin{array}{r} 63 \\ + \\ \hline 26 \end{array}$
---	---	---	---	---

**319.** Idishdan 5 stakan sut quyib olinganidan keyin unda 3 stakan sut qoldi. Oldin idishda necha stakan sut bo'lgan?

**320.** Sinf kutubxonasidan o'quvchilarga 25 ta kitob berildi. O'qituvchi yana 8 ta kitob berganidan keyin kutubxonada 60 ta kitob qoldi. Kutubxonada avval nechta kitob bo'lgan?

**321.**



$$1 \text{ m} \dots 57 \text{ sm}$$

$$13 \text{ sm} \dots 1 \text{ dm} \quad 4 \text{ sm}$$

$$1 \text{ dm} \dots 11 \text{ sm}$$

$$5 \text{ dm} \dots 40 \text{ sm}$$

322. Necha marta uchtdan mashina rasmi solingan? Hamma mashina nechta?



323. Shunday sonlar tanlab olingki, yozuvlar to'g'ri bo'lsin:

$$7 + 35 < 8 + \square$$

$$36 - 4 > 36 - \square$$


$$60 - 9 > \square - 9$$

$$40 - 4 < \square - 3$$

324.

Duradgor 12 ta taxtani randalab bo'lganidan keyin yana 8 ta taxtani randalashi kerakligi aniqlandi. Duradgor hammasi bo'lib nechta taxtani randalashi kerak?

325.  $18 + 5$        $87 + 3$        $70 - 7$        $40 - 6 - 6 - 6$



$$57 - 26$$

O'nl.	Birl.
5	7
2	6
3	1

$$57 - 26 = \square$$

$$(57 - 20) - 6 =$$

$$= 37 - 6 = 31$$

Misolni  
ustun qilib  
yozish qulay.

57
- 26
31

Tushuntiraman:

1) O'nliklarni o'nliklar tagiga, birliklarni birliklar tagiga yozaman.

2) Birliklardan birliklarni ayiraman:

$$7 \text{ birl.} - 6 \text{ birl.} = 1 \text{ birl.}$$

1 ni birliklar tagiga yozaman.



3) **O'nliklardan o'nliklarni ayiraman:**

$$5 \text{ o'nl.} - 2 \text{ o'nl.} = 3 \text{ o'nl.}$$

3 ni o'nliklar tagiga yozaman.

4) **Javobni o'qiyman:** ayirma 31 ga teng.


**326.** Misollarni tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} 99 \\ - 75 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 84 \\ - 31 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 65 \\ - 22 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 47 \\ - 35 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 32 \\ + 61 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 23 \\ + 56 \\ \hline \end{array}$$

**327.** Xurshidaning 100 so'mi bor edi. U 52 so'mga umumiy daftar va 24 so'mga qalam sotib oldi. Uning qancha puli qoldi?

**328.** Ikkita bola qarama-qarshi tomonga qarab yurmoqda. Hozir ular orasidagi masofa 60 m. Agar bolalarning har biri yana 15 m dan yursa, ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

**329.** Bu shakllar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



**330.**

$$\begin{array}{r} 88 \\ - 75 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 94 \\ - 82 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 67 \\ - 51 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 75 \\ - 23 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 58 \\ - 37 \\ \hline \end{array}$$

**331.** Tikuvchilik ustaxonasida 23 g'altak kulrang ip, undan 35 g'altak ortiq oq ip, oq ipdan 21 g'altak ortiq qora ip bor edi. Ustaxonada necha g'altak qora ip bo'lgan?



## Harfli ifodalar



Agar „darcha“ga xo‘roz olib kelayotgan kartochkani qo‘yilsa,  $4 + 5$  ifodasi hosil bo‘ladi. Bu ifodaning qiymatini topamiz:

$$4 + 5 = 9$$

„Darchaga“ boshqa sonlarni qo‘ying va hosil bo‘lgan ifodalarning qiymatlarini hisoblang. Navbatdagi yozuvlarda „darcha“ga shu sonlarni qo‘ying va hosil bo‘lgan ifodalarning qiymatlarini hisoblang:

$$\square + 6 \quad 12 - \square \quad 4 - \square$$

Nega so‘nggi misoldagi „darcha“ga 5, 6, 7, 8, 9 sonlarini qo‘yish kerak emas?

Matematikada „darchalar“ o‘rniga kichik lotin harflari yoziladi. Ularni o‘qish va yozishni o‘rganib olishingiz kerak.

Masalan,

$a$  harfi „a“ deb,  $b$  harfi „be“ deb,  $c$  harfi „se“ deb,  $k$  harfi „ka“ deb o‘qiladi.

• Ba'zi lotin harflarini yozib oling va yodda tuting:

$Aa - a$	$Cc - se$	$Kk - ka$	$Mm - em$
$Bb - be$	$Dd - de$	$Xx - iks$	$Oo - o$

**332.** 1) Agar  $a = 9$ ,  $a = 13$  bo'lsa,  $a + 7$  ifodaning qiymatini toping.

Namuna:

$a = 9$	$9 + 7 = 16$
$a = 13,$	$13 + 7 = \square$

2)  $24 - b$  ifodani o'qing. Agar  $b = 4$ ,  $b = 20$ ,  $b = 12$ ,  $b = 0$  bo'lsa, uning qiymatini toping.

**333.** Qisqa yozuv bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

1)

Bor edi	Jo'natishdi	Qoldi
98 ta sovg'a	23 dona va 45 dona	?

2)

Bor edi	Ulashdi	Bo'ldi
47 ta vagon	13 ta vagon va 17 ta vagon	?

**334.**

Sirk sahnasida ko'ylak kiygan 6 ta va shim kiygan 5 ta maymun o'yin ko'rsatdi. Sahnaga yana 3 ta maymunni olib chiqishdi. Hamma maymunlar nechta bo'ldi?

**335.** Ifodalarning qiymatlarini toping, hisoblashlarni ustun qilib yozing:

$43 + 35$	$68 - 26$	$34 + 52$	$89 - 64$
-----------	-----------	-----------	-----------

Yechimni tekshiring.



**336.** Jadval bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

	Bor edi	Jo'natishdi	Qoldi
1	40 ta konvert	?	15 ta konvert
2	?	23 ta konvert	8 ta konvert
3	100 ta konvert	52 ta konvert	?

**337.** Bochkadagi yog' necha litr?



20 litr



o'shancha litr



ikkala bidondagidan 48 litr ortiq

**338.** 1) Agar  $a = 4$ ,  $a = 6$ ,  $a = 18$  bo'lsa,  $9 + a$  yig'indini toping.

2) Agar  $b = 58$  bo'lsa,  $b - 4$  ayirmani toping.

**339.** To'g'ri burchaklarni ayting. To'g'ri burchakdan kichik burchaklarni daftaringizga yozing:



**340.**



O'rgatilgan it 45 sm balandlikka sakradi. Ilgari u 33 sm balandlikka sakragan edi. O'rgatilganidan keyin it ilgarigidan qancha yuqoriga sakraydigan bo'ldi?

**341.** Misollarni ustun qilib yozib, amallarni bajaring:

$$32 + 45$$

$$96 - 74$$

$$31 + 62$$

$$87 - 42$$

$$61 + 28$$

$$46 - 21$$

$$53 + 15$$

$$79 - 38$$



O'nl.	Birl.
3	7
4	8
8	5

+

$$37 + 48$$

		37	
		48	
		85	

Tushuntirish bilan yeching:

- 1) **Yozaman:** ...
- 2) **Birliklarni qo'shaman:**  
 $7 \text{ birl.} + 8 \text{ birl.} = 15 \text{ birl.}$   
 $15 \text{ birl.} - \text{bu } 1 \text{ o'nl. va } 5 \text{ birl.}$   
 Birliklar ostiga 5 ni yozaman, 1 o'nlikni o'nliklarga qo'shish kerak.
- 3) **O'nliklarni qo'shaman:**  
 $3 \text{ o'nl.} + 4 \text{ o'nl.} = 7 \text{ o'nl.}$   
 $7 \text{ o'nl.} + 1 \text{ o'nl.} = 8 \text{ o'nl.}$   
 O'nliklar tagiga 8 ni yozaman.
- 4) **Javobni o'qiyman:** yig'indi 85 ga teng.

**342.** Misollarni tushuntirib yeching:

$$\begin{array}{r} + 55 \\ + 27 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 28 \\ + 45 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 49 \\ + 27 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 83 \\ - 52 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 35 \\ + 18 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 96 \\ - 12 \\ \hline \end{array}$$

343. Qaysi kesma eng qisqa? Qaysinisi eng uzun?



344. Xat tarqatuvchi 18 ta xatni egalariga tarqatishi kerak. Bir ko'p qavatli uyga 6 ta xat, ikkinchi uyga 7 ta xat tarqatdi. U yana nechta xatni egalariga tarqatishi kerak?

345. Tenglamani yeching:

$$x - 21 = 44$$


$$56 + x = 100$$

$$78 - x = 52$$



346. Qo'y 20 kg, o'rdak esa 2 kg keldi. Qo'y o'rdakdan necha kilogramm og'ir? O'rdak qo'ydan necha kilogramm yengil?

347. Misollarni tushuntirish bilan yeching:



35	29	68	59	78	94
+	+	+	-	-	-
<u>43</u>	<u>57</u>	<u>24</u>	<u>38</u>	<u>65</u>	<u>81</u>

348. Uzunligi 4 sm bo'lgan kesma chizing. Uning uchlarini  $C$  va  $D$  harflari bilan belgilang.  $CD$  kesma 4 sm ga teng deb aytish mumkin.

**Kesmani har qanday ikkita bosh harf bilan belgilash mumkin.**

349. Uzunligi 3 sm bo'lgan  $AB$  kesma va uzunligi undan 2 sm ortiq bo'lgan  $CD$  kesma chizing.

350. Mebel do'koniga 15 ta shkaf, 25 ta karavot, shkaf va karavot birgalikda nechta bo'lsa, shundan 8 ta kam stol keltirildi. Do'konga nechta stol keltirilgan?

351. Har qatorga 4 tadan qilib 8 ta doiracha rasmini chizing. Nechta qator bo'ldi?

352.  $48 + 7$        $80 - 54$        $9 + 8$        $11 - 9$   
 $35 - 9$        $90 - 63$        $6 + 7$        $12 - 5$

353.

$\begin{array}{r} 83 \\ - 62 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 24 \\ + 45 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 76 \\ - 53 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 53 \\ + 34 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 89 \\ - 66 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 38 \\ - 16 \\ \hline \end{array}$

354.

$\begin{array}{r} + \\ - \end{array} \begin{array}{l} 7 \dots 5 \dots 8 = 4 \\ 16 \dots 9 \dots 5 = 20 \end{array}$        $\begin{array}{l} 4 \dots 9 \dots 7 = 6 \\ 6 \dots 4 \dots 9 = 11 \end{array}$




### Millimetr



Siz endi bunday uzunlik birliklarini bilasiz: desimetr, santimetr.

Bundan ham kichik o'lchov birligi — millimetrdir.



Chizg'ichda bir santimetrni ko'rsating. U nechta teng bo'lakka bo'lingan? Har bir bo'lak bir millimetrga teng. 1 sm 10 millimetr bo'ladi.

$$1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}$$

355.  $CD$  kesmaning uzunligi   sm  mm ga teng.





$C$   $D$



$AB$  kesmaning uzunligini o'lchang:

$A$   $B$

$AB$ ,  $CD$ ,  $MK$  kesmalarning uzunliklari qancha?  
Har bir kesmaning uzunligini millimetrlarda yozing:



Namuna:  $PE = 2 \text{ sm } 3 \text{ mm}$ .  
 $PE = 23 \text{ mm}$ .

- 356.** Uzunligi 9 mm, 7 mm, 2 sm 3 mm, 4 sm 6 mm bo'lgan kesmalar chizing.
- 357.** Karimning bir qo'lida 9 ta yong'oq, ikkinchi qo'lida esa bundan 3 ta kam yong'oq bor. Masala savolini shunday qo'yingki, u ikkita amal bilan yechilsin. Masalani yeching.
- 358.** Birliklari nechta bo'lsa, o'nliklari soni ham shuncha bo'lgan barcha ikki xonali sonlarni yozing.

**359.**

8 o'nlik – 5 o'nlik

6 dm – 30 sm

80 – 40

7 dm – 6 dm

9 sm – 40 mm

30 + 70





360.  $11 - 8 + 4$        $12 - 9 + 8$        $90 - 30 + 10$   
 $13 - 9 + 8$        $7 + 7 - 8$        $80 - 40 - 40$



	O'nlik	Birlik
+	3	7
	5	3
	9	0

37 + 53	
+	37
	53
	90

Tushuntirish bilan yeching:

- 1) **Yozaman...**
- 2) **Birliklarni qo'shaman:**  
 $7 \text{ birlik} + 3 \text{ birlik} = 10 \text{ birlik}$ ;  
 $10 \text{ birlik} - \text{bu } 1 \text{ o'nlik va } 0 \text{ birlik}$ . Birliklar ostiga 0 ni yozaman, 1 o'nlikni o'nliklarga qo'shish kerak.
- 3) **O'nliklarni qo'shaman:**  
 $3 \text{ o'nlik} + 5 \text{ o'nlik} = 8 \text{ o'nlik}$ .  
 $8 \text{ o'nlik} + 1 \text{ o'nlik} = 9 \text{ o'nlik}$ .  
 O'nliklar ostiga 9 ni yozaman.
- 4) **Javobni o'qiyman: yig'indi 90 ga teng.**

361. Tushuntirish bilan yeching:

$58$	$46$	$37$	$68$	$87$	$98$
$+ 32$	$+ 24$	$+ 43$	$- 32$	$- 13$	$- 17$
<hr/>	<hr/>	<hr/>	<hr/>	<hr/>	<hr/>

362. Oilada 4 ta o'g'il va 2 ta qiz bola bor. Oilada hammasi bo'lib qancha bola voyaga yetmoqda? O'g'il bolalar qiz bolalardan nechta ko'p? Qizlar o'g'il bolalardan nechta kam?
363. Sinfda 13 ta o'g'il bola va 18 ta qiz bola bor. Ulardan 10 tasi sayohatga chiqdi. Sinfning nechta o'quvchisi sayohatga chiqmadi?



370.  $13 - 8 + 9$        $91 - 9$        $56 + 8$        $80 - 24$   
 $16 - 9 + 7$        $82 - 8$        $73 + 7$        $90 - 62$

371.  $\begin{array}{r} 34 \\ + 66 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 71 \\ + 29 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 48 \\ + 32 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 39 \\ + 56 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 67 \\ + 25 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 58 \\ + 39 \\ \hline \end{array}$

372. Sinf kutubxonasi kitoblari haqida masala tuzing va uni yeching:


Bor edi	Berishdi	Qoldi
90 ta kitob	29 ta va 35 ta kitob	?

373. Chizg'ich yordamida har bir kesmaning uzunligini santimetr va millimetrlarda aniqlang:



Ularning uzunliklarini millimetrlarda ifodalang.

374.



Yo'lakning uzunligi 30 m. Yo'lakning ikki boshidan bir-biriga qarab ikkita bola yurdi. Ulardan biri uchrashguncha 16 m yurdi. Ikkinchi bola uchrashguncha qancha yurgan?

375.



„Tiko“ avtomobilining bakida 39 litr, „Neksiya“ avtomobilining bakida esa bundan 16 litr ortiq

benzin bor. Ikkala avtomobilning baklarida necha litr benzin bor?

376. 
$$\begin{array}{r} 47 \\ + 53 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 58 \\ + 22 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 67 \\ + 27 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 97 \\ - 6 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 45 \\ - 23 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 56 \\ - 36 \\ \hline \end{array}$$

377. Masala tuzing va uni yeching:

Bakda bor edi	Sarflashdi	Yana quyishdi	Bo'ldi
		5 litr	?
11 litr benzin	3 litr		


378. Bu kesmalarning uzunliklarini taqqoslang:



379. 
$$\begin{array}{r} 66 \\ + 26 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 94 \\ - 51 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 72 \\ + 28 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 89 \\ - 52 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 27 \\ + 33 \\ \hline \end{array}$$
 
$$\begin{array}{r} 98 \\ - 90 \\ \hline \end{array}$$



380.



Ikkita qizcha yo'lkaning uzunligini uning oxirlaridan bir-biriga qarab bosib o'tdilar. Uchrashguncha bir qizcha 42 m, ikkinchi qizcha undan 4 m ortiq yurdi. Yo'lkaning uzunligi qancha?

- 381.** 1) 27 va 3 ning yig'indisini, 30 va 3 ning ayirma-sini og'zaki hisoblang. Yechimini tushuntiring.  
2) Endi bu misollar qanday yozilganini va yechil-ganini qarang, yechishni tushuntiring.


• Ko'rsatma. 3 raqami ustidagi nuqta 1 o'nlik •  
• birliklarni ayirish uchun olinganini bildiradi. •

- 382.** Misollarni tushuntirish bilan yeching:

$77 + 3$

$80 - 8$

$21 + 9$

$50 - 6$

- 383.** Har qaysi siniq chiziq uzunligini toping. Har bir siniq chiziq nechta kesmadan iborat? Har bir siniq chiziqni harflar bilan belgilang:



- 384.**



3 tadan atirgul rasmi necha marta chizilgan?  
Hamma atirgullar nechta?

- 385.**

Bir xo'jalikda 18 ta, ikkinchi xo'jalikda undan 2 ta kam kombayn ta'mirlandi. Savolni shunday qo'yingki, masala ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin. Masalani yeching.



388. Sinf kutubxonasi 67 ta kitob bor edi. 46 ta kitobni bolalarga o'qish uchun berishdi. Kutubxonada qolganidan nechta ko'p kitobni o'qish uchun berishgan?

389.

$30 \text{ sm} = \square \text{ dm}$

$46 \text{ sm} = \square \text{ dm} \quad \square \text{ sm}$

$80 \text{ sm} = \square \text{ dm}$

$58 \text{ sm} = \square \text{ dm} \quad \square \text{ sm}$

390.

$$\begin{array}{r} 64 \\ + 29 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 50 \\ - 32 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 90 \\ - 67 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 45 \\ + 35 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 70 \\ - 55 \\ \hline \end{array}$$



2 4

$52 - 24$

$$\begin{aligned} 52 - 24 &= \\ &= (52 - 20) - 4 = \\ &= 32 - 4 = 28 \end{aligned}$$

-

O'nlik	Birlik
5	2
2	4
2	8

Misolni ustun qilib yozamiz.

		.	
-	5	2	
	2	4	
	2	8	

Tushuntiring:

1) **Yozaman...**

2) **Birliklarni ayiraman.** Ikkita birlikdan 4 birlikni ayirib bo'lmaydi.

5 o'nlikdan 1 o'nlikni olaman (unutib qo'ymaslik uchun 5 raqami ustiga nuqta qo'yaman).

1 o'nlik va 2 birlik – bu 12 birlik.

12 birlik – 4 birlik = 8 birlik.

Birliklar ostiga 8 ni yozaman.

Yechishni tushuntirish bilan davom ettiring.

**391.** Misollarni tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} 63 \\ -47 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 42 \\ -24 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 51 \\ -38 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 90 \\ -69 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 47 \\ +25 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 72 \\ +27 \\ \hline \end{array}$$

**392.** Jadvallar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

Turgan edi	Keldi	Bo'ldi
43 ta bola	9 ta bola va 25 ta bola	?
Bor edi	Sotishdi	Qoldi
27 kg va 34 kg behi	48 kg behi	?

**393.** Avtobus saroyida 98 ta avtobus turgan edi. Ertalab 50 ta katta avtobus va 30 ta kichik avtobus yo'lga chiqdi. Avtobus saroyida nechta avtobus qoldi?

**394.** O'quv zalida 16 ta kichik, undan 4 ta ortiq katta stol bor. O'quv zalida hammasi bo'lib nechta stol bor?


**395.**  $37 - 16$        $17 + 11$        $85 - 35 - 9$        $71 - 56$   
 $86 - 65$        $45 + 34$        $24 + 42 + 30$        $63 - 38$



**396.** 1) 8 ta doiracha oling va ularni har bir qutichaga 2 tadan solib chiqing. Nechta quticha kerak bo'ldi?  
 2) 6 ta doiracha oling va ularni 3 ta qutichaga baravardan solib chiqing. Har qaysi qutichada nechtadan doiracha bor?



**397.** Tramvayda 42 yo'lovchi kelayotgan edi. Bekatda 8 kishi tushib, 12 kishi chiqdi. Tramvaydagi yo'lovchilar nechta bo'ldi?


**398.**   $67 + 9 \dots 72 - 4$        $18 + 70 \dots 70 + 18$   
 $92 + 8 \dots 92 - 1$        $51 + 6 \dots 51 - 6$

**399.**  $7 + 84$        $90 - 66$        $50 - 26$        $69 - 40 - 7$   
 $8 + 45$        $10 + 43$        $56 - 20$        $86 - 50 - 9$

**400.**   $\begin{array}{r} 81 \\ - 62 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 75 \\ - 56 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 43 \\ - 28 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 91 \\ - 74 \\ \hline \end{array}$        $\begin{array}{r} 64 \\ - 38 \\ \hline \end{array}$

**401.**   $7 + 25$        $90 - 83$        $14 + 46$   
 $60 - 19$        $32 - 18$        $41 + 49$

**402.** To'g'ri burchaklarni ayting. To'g'ri burchakdan katta bo'lgan burchaklarni yozing:



**403.** 4 tadan lola rasmi necha marta chizilgan? Hamma lolalar nechta?



**404.** Maktab futbol jamoasida 12 ta eski va 18 ta yangi futbol to'pi bor edi. Mashqlar davomida 5 ta to'p yirtildi. Nechta to'p qoldi?

**405.** Bir bolada 90 ta kitob bor edi. U shkafning birinchi tokchasiga 28 ta, ikkinchi tokchasiga 30 ta kitobni qo'ydi, qolgan kitoblarni uchinchi tokchaga qo'ydi. Shkafning uchinchi tokchasiga nechta kitob qo'yildi?

**406.**  $56 - 25$        $42 + 18$        $61 - 3 + 30$        $54 + 6 - 27$



**407.** Ertalab do'konda 30 ta kitob javoni bor edi. Kechga borib 12 ta javon qoldi. Shu kuni nechta javon sotilgan?

**408.**



$64 - 48$	$12 + 46$	$58 + 8 - 60$	$70 + 16 - 7$
$35 + 39$	$87 - 33$	$80 - 27 + 7$	$40 - 19 + 4$

**409.** 1) O'quvchilar 24 tup nok ko'chatining, undan 9 tup ortiq olma ko'chatining tagini yumshatishdi. O'quvchilar necha tup olma ko'chatining tagini yumshatishgan?

2) Bog'bon 16 tup olmani butadi, bu butalgan shaftolilardan 5 tup ortiq. Bog'bon necha tup shaftolini butagan?

**410.** Maktabda 20 ta sinf xonasi bor, fan kabinetlari ulardan 8 ta kam. Maktabning hamma o'quv xonalari nechta?

**411.** 1)  $b$  va  $d$  sonlarining yig'indisini yozing. Har bir qo'shiluvchi uchun 4 tadan qiymat tanlab oling va yig'indini hisoblang.

2)  $a$  va  $b$  sonlarining ayirmasini yozing. Kamayuvchi va ayiriluvchi uchun 4 tadan qiymat tanlab oling va ayirmani hisoblang.

**412.** Bir ertak 30 sahifa, boshqa ertak esa 16 sahifa o'triq joyini egallagan.

Masala savolini shunday qo'yingki, u ikkita amal bilan yechilsin. Masalani yeching.

413.

Bir idishda 8 stakan sharbat, ikkinchi idishda 6 stakan sharbat qoldi. Ikkala idishda necha stakan sharbat qolgan?

414.

$52 + 38$

$89 - 54$

$18 + 6 - 14$

$24 - 7 - 9$

$41 - 25$

$44 + 31$

$39 + 9 - 16$

$57 - 8 - 6$



415.



2 tadan doiracha rasmi necha marta chizilgan?  
5 tadan doiracha rasmi necha marta chizilgan?  
Hammasi bo'lib nechta doiracha rasmi chizilgan?

416.

Oshxonaning birinchi zalida 35 kishi, ikkinchi zalida 42 kishi ovqatlandi. Ikkinchi zaldan 11 kishi chiqib ketdi. Shundan keyin birinchi zalda ikkinchidagidan necha kishi ortiq qoldi?

417.

Daladan bir mashinada 28 qop, ikkinchi mashinada birinchidagidan 6 qop ortiq, uchinchi mashinada esa ikkinchidagidan 4 qop kam sholi olib ketildi. Uchinchi mashinada necha qop sholi olib ketilgan?

418.

$56 + 4$

$90 - 9$

$79 + 9 - 8$

$6 + 0 + 5$

419.

$$\begin{array}{r} 26 \\ - 14 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 31 \\ - 17 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 42 \\ - 28 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 61 \\ - 57 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 70 \\ - 25 \\ \hline \end{array}$$

420.

Ona 17 so'mga karam va 19 so'mga sabzi sotib oldi. Ona 100 so'mdan qancha qaytim olgan?

421.

Kamayuvchi		8	23		19	18
Ayiriluvchi	9	3		7		16
Ayirma	12		14	15	12	



422.



Yuqori tokchada 4 ta, pastki tokchada undan 5 ta ortiq piyola bor. Pastki tokchada nechta piyola bor?

423.



Yuqori tokchada 9 ta, pastki tokchada esa undan 5 ta kam chashka bor. Pastki tokchada nechta chashka bor?

424.



Har qaysi guldonda 4 tadan atirgul bor. 4 ta guldondagi atirgullar nechta?

425.

1) Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 9 sm, ikkinchisi undan 3 sm uzun bo'lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

2) Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 12 sm bo'lib, u ikkinchidan 6 sm uzun bo'lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

3) Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 11 sm, ikkinchisi 10 sm bo'lsin. Birinchi kesma ikkinchidan necha santimetr uzun?

426.  $13 + 5$        $62 + 38$        $99 + 1$        $78 - 50$   
 $13 + 50$        $93 + 7$        $100 - 10$        $19 + 40$



427. Shunday sonlar tanlab olingki, quyidagi yozuvlar to'g'ri bo'lsin:

$\square < 9$        $6 + \square < 27$        $20 - \square > 14$

428. Sarvar 27 so'mga somsa sotib olganidan keyin unda 73 so'm qoldi. Sarvarda necha so'm bo'lgan?

429.

12	5			6	
		8	9		3



430.



2 tadan qoqio't guli rasmi necha marta ishlangan? Hamma qoqio't gullari nechta?

431. Matematik ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping:

1) 60 va 8, 88 va 50, 74 va 70 sonlarining ayirmasi.

2) 18 va 32, 45 va 30, 54 va 16 sonlarining yig'indisi.

432. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni turli usullar bilan yeching:

Bor edi — 50 va 4

Olindi — 22

Qoldi — ?

433. Ma'suda dasturxonga 14 ta taqsimcha, uning singlisi 9 ta taqsimcha qo'ydi. Ma'suda singlisidan nechta ko'p taqsimcha qo'ydi?

434. Rasmlarga qarang va undagi shakllar nima deb atalishini ayting. To'rtburchaklar orasidan to'g'ri to'rtburchaklarni toping. To'g'ri to'rtburchaklar orasidan kvadratlarni toping:






435.

Qo'shiluvchi	7		8		2	
Qo'shiluvchi		10		40		50
Yig'indi	40	56	90	88	70	91

436.

14	9		7	
		8		6



Namuna:  $15 - 9 = 6$ .

### Mustahkamlash uchun mashqlar

- |    |                |                |                |           |
|----|----------------|----------------|----------------|-----------|
| 1. | $27 + 34$      | $21 - 16$      | $29 + 53$      | $31 - 22$ |
|    | $35 + 28$      | $35 - 18$      | $94 - 76$      | $64 + 28$ |
|    | $56 + 17$      | $42 - 24$      | $16 + 37$      | $73 - 37$ |
| 2. | $62 - 24 + 37$ | $80 - 56 + 37$ | $87 - 54 + 29$ |           |
|    | $18 + 35 - 26$ | $60 - 23 + 18$ | $50 - 16 + 37$ |           |

$$3. \quad \begin{array}{cccc} 6 - 6 & 19 + 0 & 18 - 0 & 0 + 100 \\ 17 - 17 & 0 + 24 & 36 - 36 & 100 - 0 \end{array}$$

$$4. \quad \begin{array}{c|c|c|c|c} 40 - 18 & 90 - 68 & 80 - 54 & 78 - 40 & 90 - 9 \\ 40 - 8 & 96 - 60 & 84 - 60 & 70 - 48 & 90 - 59 \end{array}$$

$$5. \quad \begin{array}{ll} 2 \text{ dm} \quad 3 \text{ sm} = \square \text{ sm} & 42 \text{ sm} = \square \text{ dm} \quad \square \text{ sm} \\ 1 \text{ m} \quad 8 \text{ dm} = \square \text{ dm} & 56 \text{ dm} = \square \text{ m} \quad \square \text{ dm} \end{array}$$

6. Yeching va javoblarini qo'shing:

$$\begin{array}{r} 38 - 16 \\ 98 - 90 \\ 17 + 15 \\ \hline \text{javoblar} \\ \text{yig'indisi} - 62 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 14 + 29 \\ 90 - 81 \\ 18 + 17 \\ \hline \text{javoblar} \\ \text{yig'indisi} - 87 \end{array}$$

7. Qavslarni natija to'g'ri bo'ladigan qilib qo'ying:

$$\begin{array}{ll} 30 - 7 + 3 = 20 & 20 - 9 - 9 = 2 \\ 40 - 6 + 2 = 32 & 6 + 7 - 5 = 8 \end{array}$$

8. 1) Stolda 11 ta piyola bor edi. Stoldan bir nechta piyola olinganidan keyin unda 5 ta piyola qoldi. Stoldan nechta piyola olingan?

2) Portfelda bir nechta daftar bor edi. Unga yana 8 ta daftar solinganidan keyin daftarlar 15 ta bo'ldi. Portfelda nechta daftar bo'lgan?

9. Qishloqda bu yil 14 ta yangi uy qurildi, o'tgan yili undan 2 ta kam uy qurilgan edi. Shu ikki yilda qishloqda nechta uy qurilgan?

10. Bolalar bog'chasiga 20 kilogramm un keltirildi. 4 kg undan kulchatoy pishirildi, 8 kg undan esa somsa yopildi. Necha kilogramm un qoldi?

11. Qizcha ertalab 5 ta yuza taqsimcha, tushki ovqatdan keyin esa 8 ta chuqur va 8 ta yuza taqsimcha yuvdi. Qizcha hammasi bo'lib nechta taqsimcha yuvgan?
12. Gulpushtada 25 ta chinnigul ochildi. Bir guldasta uchun 8 ta, ikkinchi guldasta uchun 7 ta chinnigul uzishdi. Gulpushtada nechta chinnigul qoldi?
13. Bayramga sharlar sotib olishdi. Bir bog'lamda 12 ta shar, ikkinchi bog'lamda 3 ta kam shar bor. Shunday savol qo'yingki, masala ikki usul bilan yechilsin.
14. Qaysi o'yinchoqni archaga ilmoqchisiz? Uni olish uchun javobi bir xil bo'lgan misollar juftini toping.

$$40 - 1$$

$$21 + 8$$

$$60 - 3$$


$$30 + 10$$

$$3 + 20$$


$$45 + 25$$

$$20 - 4$$

$$100 - 10$$







## KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

### Ko'paytirish

437. Hamma olxo'rilar nechta?



$$2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$$

$$2 \cdot 5 = 10$$

Bir xil qo'shiluvchilarni qo'shishni ko'paytirish deyiladi. Bir xil qo'shiluvchilar yig'indisi

$2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$  ni bunday yoziladi:

$$2 \cdot 5 = 10.$$

Nuqta ( $\cdot$ ) ko'paytirish belgisidir.

Ko'paytirishga oid misollar bunday o'qiladi:

$$2 \cdot 5 = 10.$$

Ikkitalab besh marta olinsa, 10 hosil bo'ladi yoki ikkini beshga ko'paytirganda o'n hosil bo'ladi.

438.

1)



$$5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 25$$

$$5 \cdot 5 = 25$$

5 tadan 5 marta olinsa, 25 hosil bo'ladi yoki 5 ni 5 ga ko'paytirilsa, 25 chiqadi.

2)

$6 + 6 + 6 = \square$ $6 \cdot 3 = \square$		

Agar 6 tadan 3 marta olinsa, 18 hosil bo'ladi yoki 6 ni 3 ga ko'paytirilsa, 18 hosil bo'ladi.

$3 + 3 + 3 + 3 = \square$ $3 \cdot 4 = \square$			

Agar 3 tadan 4 marta olinsa, 12 hosil bo'ladi yoki 3 ni 4 ga ko'paytirilsa, 12 hosil bo'ladi.


439. Qo'shishga doir misollarni ko'paytirishga doir misollarga almashtiring:

1)



$$6 + 6 + 6 + 6 = 24$$

$$6 \cdot 4 = \square$$



$$4 + 4 = 8$$

$$4 \cdot 2 = \square$$

2)



$$5 + 5 + 5 = \square$$

$$\square \cdot \square = \square$$





$$7 + 7 = \square$$

$$\square \cdot \square = \square$$

$$3) \quad 4 + 4 + 4 + 4 + 4 + 4 = \square \quad 9 + 9 + 9 + 9 = \square$$

$$4 \cdot \square = \square \quad \square \cdot \square = \square$$

**440.** Ko'paytirishga oid misollarni qo'shishga oid misollar bilan almashtiring:

1)  

$$3 \cdot 4 = 12$$

$$3 + 3 + 3 + 3 = \square$$

$$4 \cdot 3 = 12$$

$$4 + 4 + 4 = \square$$

2)  $5 \cdot 2 = 10$        $8 \cdot 6 = 48$   
 $5 + 5 = \square$        $8 + 8 + 8 + 8 + 8 + 8 = \square$

**441.** Bir guldastada 7 ta lola, ikkinchi guldastada esa bundan 2 ta ortiq lola bor. Bu guldastalarda nechta lola bor?

Ushbu yechimlar orasida masala yechimini ajratib oling:

Yechilishi

Yechilishi

1)  $7 + 2 = 9$  (lola)

1)  $7 - 2 = 5$  (lola)

2)  $7 + 9 = 16$  (lola)

2)  $7 + 5 = 12$  (lola)

Ikkinchi yechim bo'yicha masala tuzing.

**442.**

$79 - 5$

$55 - 30 + 2$

$34 - 34$

$80 - 9$

$20 - 8 + 40$

$48 + 0$

**443.** Qo'shishga oid misollarni ko'paytirishga oid misollar bilan almashtiring:

$9 + 9 + 9$

$8 + 8$

$6 + 6 + 6 + 6 + 6$

Namuna:  $5 + 5 + 5 + 5 = 5 \cdot 4$ .

444. Ko'paytirishga oid misollarni qo'shishga oid misollar bilan almashtiring:

$$7 \cdot 6$$

$$5 \cdot 8$$

$$4 \cdot 5$$

Namuna:  $7 \cdot 3 = 7 + 7 + 7$ .

445. Qo'shishni, mumkin bo'lgan joylarda ko'paytirish bilan almashtirib, bajaring:

$$18 + 18 + 18$$

$$1 + 1 + 1 + 1$$

$$6 + 9$$

$$31 + 31 + 35$$

$$0 + 0 + 0 + 0$$

$$7 + 8$$

$$42 + 24$$

$$2 + 2 + 2 + 2$$

$$4 + 7$$


446.  $60 - (25 + 15)$        $77 + 23 - 39$        $54 - 54 + 100$   
 $(48 + 6) + 16$        $70 - 42 - 13$        $38 - 9 - 7$

Namuna:  $(58 + 29) - 46 = 41$ .

$$\begin{array}{r} + 58 \\ 29 \\ \hline 87 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} - 87 \\ 46 \\ \hline 41 \end{array}$$

447. Chizmada nechta to'rtburchak bor?  
 Nechta to'g'ri to'rtburchak bor?



448.



Hamma gullar qancha? Yechimni qo'shish va ko'paytirish bilan yozing.

449.  $57 + 23$        $87 - 36$        $40 + 27$        $28 + 28$   
 $20 + 69$        $87 - 39$        $40 - 27$        $28 + 8$






450.  $7 \cdot 3$        $6 \cdot 4$   
 $7 + 7 + 7 = 21$        $6 + 6 + 6 + 6 = 24$   
 $7 \cdot 3 = 21$        $6 \cdot 4 = 24$

Qaysi son qo'shiluvchi qilib olindi? Bu son necha marta qo'shiluvchi qilib olindi?

451. Ko'paytirishga doir misollarni qo'shishga doir misollarga almashtiring va natijalarni hisoblang:

$5 \cdot 6$        $3 \cdot 7$        $1 \cdot 4$        $0 \cdot 8$

452. Bir qutida 6 ta qalam bor. Uchta shunday qutida nechta qalam bor?



Masala yechilishini qanday qilib har xil yozish mumkinligini tushuntirib bering:

$6 + 6 + 6 = 18$  (q.)

$6 \cdot 3 = 18$  (q.)

Javobi: 18 q.

Javobi: 18 q.

453. Masala shartining sxematik rasmini chizing va uni yeching:

1) har bir taqsimchada 6 ta olma bor. Besh-ta taqsimchada nechta olma bor?

2) har bir qutichada 9 ta tuxum bor. Uchta qutichada nechta tuxum bor?

**454.** O'quvchilar maktab stadionida birinchi kuni 37 m yugurish yo'lkasini tozalashdi, ikkinchi kuni undan 8 m kam, uchinchi kuni ikkinchi kungidan 9 m ortiq yo'lkani tozalashdi. Uchinchi kuni necha metr yo'lka tozalangan?

**455.** Nuqtalar o'rniga shunday amal ishoralari qo'yingki, yozuvlar to'g'ri bo'lsin:

$$\begin{array}{lll} 20 \dots 16 = 36 & 38 \dots 16 = 22 & 50 \dots 0 = 50 \\ 75 \dots 34 = 41 & 47 \dots 41 = 88 & 68 \dots 68 = 0 \end{array}$$

**456.**  $39 + 47$        $61 - 49 + 35$        $80 - 65 + 11$

Namuna:  $73 + 18 - 45 = 46.$

$$\begin{array}{r} 73 \\ + 18 \\ \hline 91 \end{array} \qquad \begin{array}{r} 91 \\ - 45 \\ \hline 46 \end{array}$$



Ko'paytirishdagi sonlarning va ifodalarning nomlarini yodda tuting.

Birinchi                      Ikkinchi  
ko'paytuvchi              ko'paytuvchi

$$\underbrace{3 \quad \cdot \quad 9}_{\text{ko'paytma}} = 27 \quad \text{ko'paytma}$$

Ko'paytirilayotgan sonlar ko'paytuvchilar deb ataladi. Ko'paytirishdan hosil bo'ladigan son ko'paytma deb ataladi.

**457.** Quyidagi misollarda ko'paytirishdagi sonlarning nomlarini ayting:

$$6 \cdot 2 = 12 \qquad 8 \cdot 3 = 24 \qquad 5 \cdot 5 = 25$$

458.



20 so'm    20 s'om    20 so'm    20 so'm    20 so'm

Har qaysi qo'g'irchoq 20 so'm turadi. 5 ta qo'g'irchoq necha so'm bo'ladi?

459.

$2 \cdot 3 = 6$

$2 \cdot 7 = 14$

$6 \cdot 3 = 18$

$2 \cdot 4 = \square$

$2 \cdot 8 = \square$

$6 \cdot 4 = \square$

460.

Masalaga doir sxematik rasm chizing va uni yeching: har bir ipga 2 tadan shar bog'lashdi. Shunday 5 ta ipda nechta shar bor?

461.

Bolalar velosipedining g'ildiragi 3 ta. Shunday 6 ta velosipedning g'ildiraklari nechta? Masalani oldin qo'shish bilan, keyin ko'paytirish bilan yeching.

462.

$24 + (19 - 9)$

$71 + 8$

$9 + 6$

$60 - 4$

$18 + (11 - 5)$

$71 - 8$

$8 + 7$

$79 - 40$

### Ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirish



$2 \cdot 3 = 6$

$4 \cdot 3 = 12$

$6 \cdot 2 = 12$


$3 \cdot 2 = 6$

$3 \cdot 4 = 12$

$2 \cdot 6 = 12$

Ko'paytuvchilarning o'rinlarini almashtirish bilan ko'paytma o'zgarmaydi.

463. Hisoblang:



$$4 \cdot 2 = 8$$

$$2 \cdot 4 = \square$$



$$5 \cdot 2 = 10$$

$$2 \cdot 5 = \square$$





$$6 \cdot 3 = 18$$

$$3 \cdot 6 = \square$$

464. 1) Xonaning 3 ta derazasi bor. Har qaysi derazada 4 tadan gulli tuvak turibdi. Derazalardagi hamma gulli tuvaklar nechta?

2) Xonaning 4 ta derazasi bor. Har qaysi derazada 3 tadan gulli tuvak turibdi. Derazalardagi hamma gulli tuvaklar nechta?

465. Quyidagi shakllarning har bir tomoni uzunligini o'lchang:



Yozuv namunasi:  $BC = 5 \text{ sm } 2 \text{ mm}$ .

466.

Ishchilar uch kunda 35 ta trolleybusni ta'mirlashdi: birinchi kuni 10 ta, ikkinchi kuni 12 ta trolleybusni ta'mirlashdi. Ishchilar uchinchi kuni nechta trolleybusni ta'mirlashgan?

467.

$$93 - 78 \quad 49 + 49 \quad 60 - (69 - 60) \quad 77 + 7$$

$$37 + 18 \quad 25 + 25 \quad 31 + (54 - 50) \quad 90 - 22$$



468. Namuna bo'yicha bajaring:

$$6 \cdot 9 = 54$$

$$9 \cdot 6 = 54$$

$$8 \cdot 4 = 32$$

$$4 \cdot 8 = \square$$

$$7 \cdot 3 = 21$$

$$3 \cdot 7 = \square$$



**469.** Ko'paytmalarni yig'indiga almashtirib, hisoblang:

$$7 \cdot 2 \quad 2 \cdot 7 \quad 3 \cdot 4 \quad 4 \cdot 3 \quad 8 \cdot 2 \quad 2 \cdot 8$$



Katta sonni kichik songa ko'paytirish qulayroq bo'ladi.

**470.** 15 nafar qiz va 9 nafar o'g'il bola bayramga sinfni bezatishdi. So'ngra 8 nafar qiz uyiga ketdi. Sinfda qizlardan nechta ortiq o'g'il bola qoldi?

**471.** „+“ yoki „-“ ishorasini va tushib qolgan sonni topib qo'ying, natijada yozuv to'g'ri bo'lsin:

$$44 \dots \square = 50$$

$$57 \dots \square = 57$$

$$68 \dots \square = 70$$

$$90 \dots \square = 35$$



**472.** 1) Birinchi ko'paytuvchi 8, ikkinchi ko'paytuvchi 4. Ko'paytmani toping.

2) 7 bilan 3, 9 bilan 2, 7 bilan 4 sonlarining ko'paytmasini yozing. Ko'paytmalarni yig'indiga almashtiring va ularning qiymatlarini toping.

**473.** Masalalar shartining sxematik rasmini chizing va ularni yeching:


1) 7 bankada 6 tadan tuzlangan bodring bor. Bu bankalarda nechta bodring bor?

2) Dasturxonga har birida 7 donadan 2 taqsimchada apelsin qo'yildi. Necha dona apelsin qo'yildi?



## Bo'lish

1) 3 ta likopchaga 6 ta olmani baravar bo'lib qo'yishdi. Har bir likopchaga nech-tadan olma qo'yishdi?



Oldin har bir likopchaga 1 tadan olma qo'yiladi. Buning uchun 3 ta olma olish kerak. Yana hamma likopchaga 1 tadan olma solish uchun 3 ta olma olish kerak. Masalani yechish uchun 6 ichida 3 tadan nechta borligini aniqlash kerak.

Bu bo'lishga doir masala.

Yechilishi:  $6:3=2$ . Javob: 2 ta olma.

2) 6 ta olma bor edi. Ularni har bir taq-simchaga 2 tadan qilib qo'yishdi. Nechta taqsimcha kerak bo'ldi?

Bor edi



2 tadan qilib qo'yishdi



Bu ham bo'lishga doir masala.

Yechilishi:  $6:2=3$ .

Javob: 3 ta taqsimcha.

Ikki nuqta (:) — bo'lish belgisi. Bo'lishga doir misollar bunday o'qiladi:

olti bo'lub 2 teng 3 ga.

474. Rasmlardan foydalanib, bo'lishni bajaring:



$6 : 2 = \square$

$6 : 3 = \square$



$8 : 2 = \square$

$8 : 4 = \square$



$10 : 2 = \square$

$10 : 5 = \square$

Qanday bo'lganingizni tushuntiring.

475. Masalaga doir sxematik rasm ishlang, uni yeching:  
10 ta qalamni 5 tadan qilib qutilarga solishdi.  
Nechta quti kerak bo'ldi?

476.  $48 - 28 + 60$

$52 - 18 - 18$



$9 + 26 - 32$

$75 - 52 + 37$

$6 + 66 - 47$

$7 + 52 - 46$

477. Daftaringizda shunday ikkita to'rtburchak chizing va ularda bir kesmani shunday o'tkazingki:  
a) bitta to'g'ri to'rtburchak va bitta uchburchak hosil bo'lsin;  
b) bitta kvadrat va boshqa to'rtburchak hosil bo'lsin.



478.

$29 + 44 - 57$

$7 \text{ m } 6 \text{ dm} = \square \text{ dm}$

$65 - 28 + 16$

$8 \text{ dm } 9 \text{ sm} = \square \text{ sm}$

479. Uzunligi 10 sm bo'lgan tasmani 2 ta teng qismga bo'ling. Bir qismning uzunligini o'lchang. Bajarilgan ish bo'yicha bo'lishga doir misol tuzing va uni daftaringizga yozing:



**480.** Rasmga qarab bunday yechiladigan masalalar tuzing:

$$10 : 2 = \square$$

$$10 : 5 = \square$$



**481.** Masalaga doir sxematik rasm chizing va uni yeching:


1) 6 bo'lak qandni 3 ta choyli piyolaga baravardan solishdi. Har qaysi piyolaga nechtadan qand solishgan?

2) 8 bo'lak qandni choyli piyolalarga 2 tadan solib chiqishdi. Nechta piyolaga qand solishgan?

**482.** Issiqxonada 45 ta atirgul ochildi. Bir guldasta uchun 18 ta, ikkinchi guldasta uchun 7 ta atirgul uzishdi. Issiqxonada nechta atirgul qoldi?

**483.**

Har bir shaklni chizing va uni kvadratgacha to'ldiring:



**484.**

$$97 - 52$$

$$35 + 49$$

$$23 + 46$$

$$47 - 24$$

$$70 - 37$$

$$61 - 23$$


$$50 - 7$$

$$100 - 68$$



**485.** Masalalarning yechilishlari va javoblarini taqqoslang:


1) 8 ta sabzi bor edi. Sabzilarni 4 ta teng qismga bo'lishdi va bog'lab chiqishdi. Har qaysi bog'lamda nechtadan sabzi bor?



Yechilishi:  $8 : 4 = 2$ .

Javob: 2 ta sabzi.

2) 8 ta sabzi bor edi. Sabzilarni 4 tadan qilib ajratishdi va ularni bog'lashdi. Necha bog'lam sabzi bo'ldi?



Yechilishi:  $8 : 4 = 2$ .

Javob: 2 ta bog'.

Ikkala masalani bo'lish amali bilan yechishdi. Javobda natijaning nomini yozishdi.

**486.** Masalaga doir sxematik rasm ishlang va uni yeching:

1) Qutida 12 ta konfet bor edi. Agar har qaysi bola 2 tadan olsa, bu konfetlar nechta bolaga yetadi?


2) Qutida 12 ta konfet bor edi. 6 ta bolaning har biriga baravardan konfet berishdi. Har qaysi bola nechtadan konfet oldi?

487. Qo'shiq to'garagiga 39 o'quvchi qatnashadi, rasm to'garagiga qo'shiq to'garagidan 6 o'quvchi kam qatnashadi, sport to'garagiga esa oldingi ikkala to'garakda qancha bo'lsa, shuncha o'quvchi qatnashadi. Sport to'garagiga qancha o'quvchi qatnashadi?

488.  $32 - 19$        $57 + 27$        $29 + 68$        $21 - 19$

489.

$a$	70	60	42	56
$c$	9	8	34	47
$a - c$				

490.   $72 - 40 \dots 72 - 50$        $80 - 14 \dots 70 - 14$   
 $32 + 14 \dots 32 + 30$        $38 + 15 \dots 15 + 38$

Namuna:  $45 - 26 \dots 45 - 30$


$19 > 15$

$45 - 26 > 45 - 30$

$$\begin{array}{r} 45 \\ - 26 \\ \hline 19 \end{array} \quad \begin{array}{r} 45 \\ - 30 \\ \hline 15 \end{array}$$



### Teskari masalalar



Jami ...?

Jami 25 so'm

Jami 25 so'm

1) Qalam 10 so'm, mo'yqalam esa 15 so'm turadi. Qalam bilan mo'yqalam qancha turadi?

2) Qalam bilan mo'yqalam 25 so'm turadi. Qalam 10 so'm turadi. Mo'yqalam qancha turadi?

3) Qalam bilan mo'yqalam 25 so'm turadi. Mo'yqalam 15 so'm turadi. Qalam necha so'm turadi?

Masalalarni taqqoslang. Ikkinchi va uchinchi masalalar birinchi masaladan qanday hosil qilingan?

### Yodingizda tuting!

Ikkinchi va uchinchi masalalar birinchi masalaga nisbatan **teskari masalalardir**. Uchala masala bir-biriga teskari masalalardir.

491. Misollarni yeching:

$$\begin{array}{r} 42 \\ + 35 \\ \hline \end{array}$$


$$\begin{array}{r} 79 \\ + 16 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 87 \\ - 64 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 52 \\ - 28 \\ \hline \end{array}$$

Qo'shishni ayirish bilan, ayirishni esa qo'shish bilan tekshiring.

492. Rasm bo'yicha masala tuzing:



?



45 so'm



20 so'm

Jami 100 so'm

493. 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15 sonlari qatoridan  $a$  harfining  $a - 8 < 14$  yozuv to'g'ri bo'ladigan qiymatlarini yozing.

494.

Masala shartining rasmini chizing va uni yeching.

- 1) 10 ta sabzi 5 ta quyonga teng bo'lib berildi. Har bir quyonga nechta sabzi berildi?
- 2) 16 ta sabzi har bir quyonga 8 tadan berildi. Nechta quyonga sabzi berildi?

495.



$87 - 43 \dots 85 - 43$

$84 \text{ mm} \dots 8 \text{ sm}$

$60 - 27 \dots 70 - 37$

$91 \text{ mm} \dots 9 \text{ sm}$

496.

Tenglamalarni yeching:

$x + 15 = 20$

$x - 8 = 7$

$16 - x = 5$

497.

Masalalarni yeching. Ularga teskari masalalarni tuzing.

1) Konfet bilan shokolad birgalikda 100 so'm turadi. Konfet 40 so'm turadi. Shokolad qancha turadi?

2) Avtosaroyda 90 ta mashina bor edi. Ertalab 80 ta mashina ishga chiqib ketdi. Saroyda nechta mashina qoldi?

498.

Hovlida olma va nok daraxtlari bor. Olmaning balandligi 4 m, nokning balandligi 7 m. Qaysi daraxt baland? Qancha baland?

499.

Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} 49 \\ + 24 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 56 \\ + 37 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 17 \\ + 78 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 41 \\ - 24 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 72 \\ - 27 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 70 \\ - 32 \\ \hline \end{array}$$

500.

Har biriga 2 kg dan qilib 7 ta xaltaga no'xat solishdi. Hamma no'xat qancha bo'lgan?

501.

Tushib qolgan sonni o'rniga qo'yib yozing:

$7 \cdot 3 = 3 \cdot \square$

$14 \cdot 2 = 2 \cdot \square$

$9 \cdot \square = 8 \cdot \square$

$\square \cdot 31 = 31 \cdot 5$





502. 1)  $3 \cdot 4 = 12$   
 $12 : 3 = 4$   
 $12 : 4 = 3$



3 va 4 — ko'paytuvchilar  
 12 — ko'paytma



2)   $5 \cdot 2 = 10$   
 $10 : 5 = 2$   
 $10 : 2 = 5$

Agar ikki sonning ko'paytmasini ko'paytuvchilardan biriga bo'lsak, u holda ikkinchi ko'paytuvchini hosil qilamiz.

503.  $6 \cdot 4 = 24$        $9 \cdot 2 = 18$        $5 \cdot 3 = \square$   
 $24 : 6 = \square$        $18 : 9 = \square$        $15 : 5 = \square$   
 $24 : 4 = \square$        $18 : 2 = \square$        $15 : 3 = \square$

Birinchi ko'paytuvchi qanday hosil qilindi?  
 Ikkinchi ko'paytuvchi qanday hosil qilindi?

504. Sxematik rasm bo'yicha uchta o'zaro teskari masala tuzing. Bu masalalarning bittasi ko'paytirishga, ikkitasi bo'lishga doir bo'lsin. Ularni yeching.



505. 1) Albomning har bir betiga 4 tadan rasm yopishtirilgan. 2 ta betga nechta rasm yopishtirilgan?

2) Albomning birinchi betiga 4 ta, ikkinchi betiga esa 6 ta rasm yopishtirilgan. Ikki betga nechta rasm yopishtirilgan?

Nega birinchi masala ko'paytirish bilan, ikkinchi masala qo'shish bilan yechiladi?

506.

1) Tushuntirish bilan yeching:

$$\begin{array}{r} 63 \\ + 37 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 25 \\ + 46 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 17 \\ + 54 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 71 \\ - 23 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 62 \\ - 45 \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} 70 \\ - 19 \\ \hline \end{array}$$

2) Ayirishni qo'shish bilan tekshiring.

507. Uzunligi 12 sm ga teng kesma chizing va uni uchta teng qismga bo'ling.



508. 1) Koptok 8 so'm turadi. Shunday 4 ta koptok qancha turadi? Shunday 2 ta koptok-chi? 8 ta shunday koptok-chi?



8 so'm



8 so'm



8 so'm



8 so'm

Bahosi (so'm)	Miqdori (dona)	Hammasi (so'm)
8 so'm	4 ta	?

2) 40 so'mga; 64 so'mga; 72 so'mga shunday koptoklardan nechta olish mumkin?

509. Salim dasturxonga 9 ta shaftoli va 5 ta nok qo'ydi. Bolalar 4 ta shaftolini yeyishdi. Nechta meva qoldi? Masalani ikki usul bilan yeching.

510. Masala shartining sxematik rasmini chizing va uni yeching:

- 1) O'quvchi 12 ta kitobni shkafga har qatorga 6 donadan qilib qo'ydi. Necha qator bo'ldi?
- 2) O'quvchi shkafga 18 ta kitobni 3 ta tokchaga baravardan terib qo'ydi. Har bir tokchaga nechta kitob qo'yilgan?

**511.** Jadval bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching:

	Bor edi	Ketdi	Qoldi
1	?	7 ta mashina	9 ta mashina
2	42 ta mashina	?	5 ta mashina

**512.**

Tekshirish bilan yeching:

$$39 - 29 \qquad 53 - 36 \qquad 47 + 23 \qquad 61 - 48$$

**513.**

Bola ko'ylagiga 2 m gazlama ketadi. 4 ta shunday ko'ylakka nechta metr gazlama ketadi?

Bo'lishdagi sonlar va ifodalarning nomini yodda tuting:

$$\underbrace{\quad 18 \quad : \quad \quad 2 \quad}_{\text{Bo'linma}} = 9 \quad \text{Bo'linma}$$

**514.** Cho'plardan foydalanib bo'linmani toping:

- 1) Bo'linuvchi 10, bo'luvchi 5. Bo'linmani toping.
- 2) Bo'luvchi 3, bo'linuvchi 9. Bo'linmani toping.
- 3) 14 bilan 7 ning bo'linmasini toping.

**515.** Cho'plardan foydalanib masalalarni yeching:

- 1) 18 ta pichoq qutichalarga 6 tadan qilib joylandi. Necha quticha kerak bo'lgan?

- 2) 15 kalava ipak ipdan 5 ta bir xil sharf to'qildi. Har bir sharfga necha kalava ipak ip ketgan?  
 3) Ikki g'ildirakli 4 ta velosiped uchun nechta g'ildirak kerak bo'ladi?

516.



30 so'm



25 so'm




50 so'm

Rasmdan foydalanib, quyidagi ifodalar nimani bildirishini tushuntiring:

- 1)  $30 + 25$                       2)  $30 + 50$                       3)  $25 + 50$   
 4)  $30 - 25$                       5)  $50 - 25$                       6)  $50 - 30$   
 7)  $30 + 25 + 50$                       8)  $(30 + 25) - 50$

517.



Shakllarni bir so'z bilan ayting. Bunda to'rtburchaklar nechta? Qaysi shakllar ikkitadan to'g'ri burchakka ega?

518.

$7 \text{ sm} = \square \text{ mm}$                        $80 - (47 + 14)$   
 $5 \text{ dm} = \square \text{ sm}$                        $80 - (47 + 25)$



Namuna:  $80 - (56 + 19) = 80 - 75 = 5$ .

519.

Rasmga qarab ko'paytirishga doir misollar tuzing va ularni yeching:

1) ]?

$3 \cdot 5 + 5 = 20$

1)  $3 \cdot 5 = 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = 15$

2)  $15 + 5 = 20$

2)  ?

1)  $\square \cdot \square = \square$   
 2)  $\square + \square = \square$

$$4 \cdot 3 + 2 = 14$$

3) Misol shartining sxematik rasmini chizing va uni yeching:

$$6 \cdot 2 + 20$$

$$7 \cdot 2 + 8$$

**520.** Birinchi misol natijasidan foydalanib, ikkinchi misol qiymatini toping.

$$14 : 7 = 2$$

$$12 : 6 = 2$$

$$18 : 3 = 6$$

$$14 : 7 + 16$$

$$12 : 6 + 80$$

$$18 : 3 + 11$$

$$15 : 5 = 3$$

Namuna:  $15 : 5 - 2 = 3 - 2 = 1.$

**521.** 1) 12 ta apelsin 3 ta taqsimchaga teng bo'lib qo'yildi.

2) 12 ta apelsin taqsimchalarga 3 tadan qilib qo'yildi.

Masala shartining sxematik rasmini chizing va yechilishini qarab chiqing:

$$12 : 3 = 4$$

Javob: 4 ta apelsin.

$$12 : 3 = 4$$

Javob: 4 ta taqsimcha.

Masalalarning yechilishlari nimasi bilan o'xshash, nimasi bilan farq qiladi? Javoblari nimasi bilan o'xshash, nimasi bilan farq qiladi?

**522.** Jonli burchak uchun 14 ta quyon olindi va ular 2 katakka baravardan qo'yildi. Har bir katakka nechta quyon qo'yilgan?

**523.**

$$81 - 16 - 24$$

$$38 + 19 - 47$$

$$(75 + 8) - 64$$

$$94 - 25 - 36$$

$$18 + 56 + 14$$

$$90 - (36 + 48)$$

524.  $4 \cdot 7 = 28$                        $9 \cdot 6 = 54$                        $6 \cdot 7 = 42$

$28 : 4 = 7$                        $54 : 9 = \square$                        $42 : 6 = \square$

$28 : 7 = 4$                        $54 : 6 = \square$                        $42 : 7 = \square$




525. Tenglamani yeching:

$x + 7 = 14$

$12 - x = 9$

$x - 5 = 16$



526. Namuna:  $2 \cdot x = 12$  | Tenglamalarni yeching:

$x = 12 : 2$

$2 \cdot x = 6$

$x = 6$

$3 \cdot x = 9$

$2 \cdot 6 = 12$

$x \cdot 2 = 4$

527. Fermada bir oyda 45 g'aram beda, ikkinchi oyda birinchiga qaraganda 9 g'aram ortiq beda ishlatildi. Shu ikki oyda necha g'aram beda ishlatilgan?

528.  $57 - 28$      $100 - 9$      $72 - 38$      $28 - 28$

529. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi — 45 yo'lovchi

Tushib qoldi — 18 yo'lovchi

Chiqdi — 12 yo'lovchi

Yo'lovchilar nechta bo'ldi?

530.  $50 - 14$      $64 - 43$      $40 - 27$      $62 - 16$

$64 - 46$      $94 - 80$      $72 - 27$      $62 - 18$





$$\begin{array}{l} 12 : 4 = 3 \\ \hline 12 : 3 = 4 \\ 3 \cdot 4 = 12 \end{array}$$



$$\begin{array}{l} 6 : 2 = 3 \\ \hline 6 : 3 = 2 \\ 2 \cdot 3 = 6 \end{array}$$

Agar bo'linuvchi bo'linmaga bo'linsa, bo'luvchi hosil bo'ladi. Agar bo'luvchi bo'linmaga ko'paytirilsa, bo'linuvchi hosil bo'ladi.

- 531.** Jadval bo'yicha o'zaro teskari uchta masala tuzing va ularni yeching:



Bahosi  
9 so'm

Bahosi (so'm)	Miqdori (dona)	Hammasi (so'm)
9 so'm	6 ta	?
9 so'm	?	54 so'm
?	6 ta	54 so'm

- 532.** Tenglamalarni yeching:

$$2 \cdot x = 14$$

$$x \cdot 2 = 10$$

$$x + 2 = 10$$

- 533.** Bir tokchada 46 ta, ikkinchi tokchada 37 ta kitob bor. 36 ta kitob matematikaga oid, qolganlari badiiy kitoblar. Tokchada nechta badiiy kitob bor?

**534.**

Masalani sxema bo'yicha ikki usul bilan yeching:

Bor edi — 60  
Ketdi — 3 va 2  
Qoldi — ?

1 - usul  
 $\square - (\square + \square)$   
2 - usul  
 $(\square - \square) - \square$

535.  $23 - 19 + 56$        $100 - 32 - 42$        $(32 + 23) - 23$   
 $61 - 46 + 38$        $100 - 33 - 43$        $(32 + 23) - 24$

536. =, >, < belgilari to'g'ri qo'yilganmi-yo'qmi, tekshirib ko'ring:

$3 + 4 = 7$

$10 + 6 > 10 + 5$

$20 - 2 = 18$

$70 - 6 < 70$

$4 \cdot 2 = 8$

$5 \cdot 2 > 5 \cdot 1$

**Bular tengliklar.**

**Bular tengsizliklar.**

537. Quyidagi ifodalardan foydalanib ikkita tenglik va ikkita tengsizlik yozing:

$45 + 16$

$50 - 8$

$16 + 45$

$50 - 25$


538. Tenglamalarni yeching:

$x : 2 = 5$

$x \cdot 2 = 10$

$x : 3 = 6$

Namuna:



$x : 3 = 5$

$x = 5 \cdot 3$

$x = 15$

$15 : 3 = 5$

$5 = 5$

539. Dehqonlar uchta yengil mashinaga 5 kishidan va bir avtobusga 35 kishi o'tirib, shaharga teatrga borishdi. Qishloqdan necha kishi teatrga borgan?

540.

Maktab bog'ida 16 tup shaftoli va 12 tup behi bor. Maktab bog'ida hammasi bo'lib necha tup mevali daraxt bor?

541. Yo'lkaning 20 metri qordan tozalangan edi. Yana bir necha metr tozalangandan keyin yo'lkaning 30 metri tozalandi. Yana necha metr tozalandi?



## 0, 1, 10 sonlari bilan ko'paytirish va bo'lish

$$\underline{1 \cdot a = a}$$

$$1 \cdot 3 = 1 + 1 + 1 = 3$$

$$1 \cdot 5 = 1 + 1 + 1 + 1 + 1 = 5$$

1 ni har qanday songa ko'paytirilsa, shu sonning o'zi hosil bo'ladi.

$$\underline{0 \cdot a = 0}$$

$$0 \cdot 3 = 0 + 0 + 0 = 0$$

$$0 \cdot 5 = 0 + 0 + 0 + 0 + 0 = 0$$

Nolni har qanday songa ko'paytirilsa, nol hosil bo'ladi.

542. 1) Ko'paytmani yig'indi bilan almashtiring va natijani toping:

$$1 \cdot 4$$

$$1 \cdot 2$$

$$0 \cdot 4$$

$$0 \cdot 2$$

$$0 \cdot 6$$

$$1 \cdot 6$$

- 2) Yig'indini ko'paytma bilan almashtiring:

$$0 + 0 + 0 + 0 + 0 + 0 + 0 = \square$$

$$1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 + 1 = \square$$

543.  $1 \cdot 15$                        $1 \cdot 42 + 24$                        $(90 - 89) \cdot 32$   
 $1 \cdot 72$                                $1 \cdot 68 - 35$                        $(70 - 69) \cdot 85$   
 $1 \cdot a$                                  $1 \cdot 71 - 8$                          $1 \cdot (32 - 24)$

544. Bir pachka tuzga 9 so'm to'landi. Ikki pachka tuzning bahosi qancha?

545. Ikkita kesma chizing:  $AB = 6 \text{ sm } 9 \text{ mm}$ ,  $CD$  kesma esa undan 6 mm qisqa bo'lsin.

546. Tushuntirish bilan yeching:

$1 \cdot 8$	$(57 - 56) \cdot 8$	$1 \cdot 93$
$0 \cdot 7$	$(16 - 16) \cdot 9$	$0 \cdot 75$
$6 \cdot 0$	$(29 - 29) \cdot 1$	$47 \cdot 1$



547.  $56 : 7$  |  $72 : 8 \cdot 9$  |  $7 \cdot 5 - 40 : 8$  |  $27 : (21 - 12)$   
 $54 : 9$  |  $45 : 9 \cdot 7$  |  $49 : 7 + 8 \cdot 8$  |  $64 : (11 - 3)$

548.  $1 \cdot 9$      $0 \cdot 8$      $1 \cdot 7$      $(75 - 74) \cdot 48$   
 $1 \cdot 43$      $0 \cdot 54$      $0 \cdot 7$      $0 \cdot (37 + 28)$   
 $1 \cdot 89$      $0 \cdot 13$      $9 \cdot 0$      $(99 - 63) + 0$

549. Maktab sport maydonchasida 27 nafar o'g'il bola va 10 nafar qiz bola o'ynamoqda. Yana 5 nafar qiz bola kelib qo'shildi. Maydonchada necha nafar bola o'ynamoqda?

Yechilishini tushuntiring:

$$(27 + 10) + 5 = 37 + 5 = \square$$

Masalani boshqa usul bilan yeching.

550. Oshxonaga 42 kg mandarin, undan 6 marta kam apelsin keltirildi. Apelsinlardan mandarinlarga qaraganda necha kilogramm kam keltirildi?

551.

Har bir masalaga mos sxematik rasm chizing hamda masalalarni va ularning yechimlarini taqqoslang:

1) 8 ta qalamni 2 ta qutiga baravardan joylashdi. Har bir qutida nechtdan qalam bo'ldi?

2) 8 ta qalamni 2 tadan qilib qutilarga joylashdi. Bunda nechta quti kerak bo'lgan?

552. Bankada 5 stakan, bidonda 15 stakan sut bor. 3 stakan sut ichildi. Necha stakan sut qoldi?



$$a \cdot 1 = a$$

Har qanday sonni 1 ga ko'paytirilsa, shu sonning o'zi chiqadi.

$$4 \cdot 1 = 4$$

$$36 \cdot 1 = 36$$

$$a \cdot 0 = 0$$

Har qanday sonni nolga ko'paytirilsa, nol chiqadi.

$$7 \cdot 0 = 0$$

$$45 \cdot 0 = 0$$

**553.**  $7 \cdot 1$        $42 \cdot (85 - 84)$        $87 \cdot 1$        $40 \cdot 1$   
 $1 \cdot 34$        $(56 + 19) \cdot 1$        $1 \cdot 78$        $0 \cdot 56$   
 $82 \cdot 1$        $(90 - 89) \cdot 38$        $0 \cdot 99$        $75 \cdot 0$

**554.** Har bir o'ramda 7 m dan bo'lgan 28 m gulqog'oz va har bir o'ramda 9 m dan gulqog'oz bo'lgan yana shuncha o'ram sotib olindi? 9 m li o'ramlarda necha metr gulqog'oz bor?

**555.**  $8 \cdot 6$        $(72 - 56) : 4$        $100 - 4 \cdot 8 + 1$   
 $42 : 7$        $(63 - 15) : 8$        $100 - 49 : 7 \cdot 5$

**556.**  $9 \text{ sm} = \square \text{ mm}$        $5 \text{ sm} \quad 6 \text{ mm} = \square \text{ mm}$   
 $5 \text{ m} = \square \text{ dm}$        $5 \text{ dm} \quad 8 \text{ sm} = \square \text{ sm}$   
 $3 \text{ dm} = \square \text{ sm}$        $3 \text{ m} \quad 7 \text{ dm} = \square \text{ dm}$

**557.** Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va yeching:  
Hamma o'quvchi — 40 nafar  
O'g'il bolalar — ?  
Qiz bolalar — 12 nafar

**558.**  $9 \cdot 1$        $6 \cdot 0$        $27 \cdot 1$        $(38 + 16) \cdot 1$   
 $1 \cdot 7$        $0 \cdot 8$        $52 \cdot 0$        $(60 - 19) \cdot 0$

559.

$a$	6	53	0
$a \cdot 1$			
$1 \cdot a$			

$b$	9	4	11	20
$b \cdot 0$				
$0 \cdot b$				

560. Bo'yoqchilarning birinchi guruhiga 14 ta, ikkinchi guruhiga birinchisiga qaraganda 2 ta kam, uchinchi guruhiga esa ikkinchi guruhdan 3 ta ko'p xonadon ajratildi. Bo'yoqchilarning uchinchi guruhiga nechta xonadon ajratilgan?

561.  $7 : 1 = 7$ , chunki  $1 \cdot 7 = 7$   
 $9 : 1 = 9$ , chunki  $1 \cdot 9 = 9$

$$a : 1 = a$$



Har qanday sonni 1 ga bo'lganda bo'lingan sonning o'zi chiqadi.

562. Tushuntirish bilan yeching:

$1 \cdot 7 = 7$	$1 \cdot 20 = \square$	$1 \cdot 73 = \square$
$7 : 1 = 7$	$20 : 1 = \square$	$73 : 1 = \square$
$7 : 7 = 1$	$20 : 20 = \square$	$73 : 73 = \square$

Sonni 1 ga bo'lganda bo'linmada qanday son hosil bo'ldi? Sonni shu sonning o'ziga bo'lganda bo'linmada qanday son hosil bo'ldi?



Istalgan sonni o'zini o'ziga bo'lganda 1 hosil bo'ladi.

$$a : a = 1$$

563. Bog'da 25 tup o'rik va 18 tup behi bor edi. Kuzda yana 42 tup ko'chat o'tqazildi. Bog'dagi daraxtlar necha tup bo'ldi?

564.

Har qaysi masalaga mos rasm chizing, masalalarni va ularning yechimlarini taqqoslang:

- 1) 15 ta daftarni 3 o'quvchiga baravardan bo'lib berildi. Har qaysi o'quvchi nechtadan daftar oldi?
- 2) 15 ta daftarni o'quvchilarga 3 tadan bo'lib berildi. Qancha o'quvchi daftar oldi?

565. Yig'indilarni ko'paytmalarga almashtiring:

$$\begin{array}{ccc} 4 + 4 + 4 & 7 + 7 + 7 + 7 & 1 + 1 + 1 \\ 10 + 10 + 10 + 10 + 10 & & 3 + 3 + 3 \end{array}$$

566.

$$\begin{array}{ccc} + & 0 \dots 5 = 5 & 8 \dots 0 = 0 & 6 \dots 1 = 6 \\ - & 0 \dots 5 = 0 & 8 \dots 0 = 8 & 1 \dots 7 = 7 \end{array}$$

$$\begin{array}{ccc} 0 : 8 = 0, & \text{chunki} & 0 \cdot 8 = 0 & \boxed{0 : a = 0} \\ 0 : 12 = 0, & \text{chunki} & 0 \cdot 12 = 0 & \end{array}$$

• Nolni har qanday songa bo'lganda nol chiqadi. •

•  ~~$a : 0$~~  Nolga bo'lish mumkin emas! •

567. Do'konda kun davomida 24 ta bolalar velosipedi, kattalar velosipedi esa undan 16 ta kam sotildi. Kattalar velosipedidan bolalar velosipediga qaraganda nechta kam sotildi?

$$\begin{array}{ccc} 568. & 19 : 1 & 0 \cdot (47 - 28) & 82 - 53 + 0 \\ & 17 : 17 & (34 - 25) : 1 & 46 + 36 - 0 \\ & 93 : 1 & (17 + 46) : 63 & 0 + 54 - 18 \end{array}$$

569. Masalani ikki usul bilan yeching:  
Bir tokchada 17 ta, ikkinchi tokchada 13 ta kitob bor. 9 ta kitob olindi. Nechta kitob qoldi?

570.

Masalaga mos sxematik rasm chizing va masalani yeching: bir taqsimchada 4 ta olma bor. Shunday 3 ta taqsimchada nechta olma bo'ladi?

571.

Masalaga mos sxematik rasm chizing va masalani yeching: 20 ta doirani 5 tadan qilib guruhlarga ajratildi. Nechta guruh hosil bo'ldi?



572.



$$0 : 8 \dots 0 + 8$$

$$4 \cdot 0 \dots 0 \cdot 4$$

$$0 : 5 \dots 0 + 5$$

$$1 \cdot 2 \dots 1 + 2$$

573.

$a = 9$  da quyidagi ifodalarning qiymatini toping:

$$1 \cdot a$$

$$0 \cdot a$$

$$a : 1$$


$$0 : a$$

$$a \cdot 1$$

$$a \cdot 0$$

$$a : a$$

$$a - a$$



Rasmda doira tasvirlangan. Doiraning chegarasi bo'lgan chiziq **aylana** deb ataladi. Aylanani sirkul bilan yasashadi. Sirkulning ignasi turadigan  $O$  nuqtani **aylana markazi** deyiladi.

$OA$  kesmani **doira radiusi** deyiladi.  $OA$  radiusning uzunligini o'lchang.

574.

Radiusi 3 sm bo'lgan aylanani chizing.

575.

Alisher birinchi kuni 19 bet, ikkinchi kuni undan 13 bet ortiq kitob o'qidi. Alisher hammasi bo'lib necha bet o'qigan?

576.

Uchburchakning perimetrini toping:



577. Har qaysi masalaga doir sxematik rasm chizing va masalani yeching:

1) Shavkat 9 ta, Temur esa undan 2 ta ortiq bayroqcha yasadi. Temur nechta bayroqcha yasadi?

2) Saodat 6 ta, Yulduz esa undan 2 ta kam bayroqcha qirqdi. Yulduz nechta bayroqcha qirqdi?




578. Tenglamalarni yeching:

$$6 : x = 2$$

$$8 : x = 2$$

$$4 : x = 2$$

Namuna:



x

$$10 : x = 2$$

$$x = 10 : 2$$

$$x = 5$$

$$10 : 5 = 2$$

$$2 = 2$$

579. Javobi 1 ga teng bo'lgan misollarni o'qing:

$$(31 - 30) : 1$$

$$0 + 1 \cdot 1$$


$$18 : 9 - 1$$

$$(31 - 30) + 1$$

$$(2 - 2) \cdot 0$$

$$81 : 9 - 8$$

580. Shaklda nuqtalar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilangan. Doiradan tashqarida yotgan nuqtalarni, doira ichida yotgan nuqtalarni ayting.



581.  $a = 1$  va  $b = 0$  da ifodalarning qiymatini toping:

$$a \cdot 7 + a$$

$$63 : a + a$$

$$b : 5 + b$$

582.

Qo'shishga oid misollarni ko'paytirishga oid misollarga almashtiring va yeching:

$$6 + 6 + 6 + 6$$

$$7 + 7 + 7 + 7 + 7$$

$$8 + 8$$

$$9 + 9$$


$$3 + 3 + 3$$

$$2 + 2$$

583. Ko'paytirishga oid misollarni qo'shishga oid misollarga almashtiring va yeching:

$$7 \cdot 3 \quad 8 \cdot 5 \quad 2 \cdot 6 \quad 9 \cdot 4 \quad 5 \cdot 7$$

Namuna:  $7 \cdot 3 = 7 + 7 + 7 = 21$ .



Misollar ustunini davom ettiring. Bunday muhokama qiling: 10 ni 2 ga ko'paytirish uchun 1 o'nlikni 2 ga ko'paytirish kerak. 2 o'nlik yoki 20 hosil bo'ladi.

Agar:

$10 \cdot 2 = 20$  bo'lsa, u holda  $2 \cdot 10 = 20$  va  $20 : 2 = 10$ ,  $20 : 10 = 2$

$10 \cdot 3 = \square$  bo'lsa, u holda ... va..., ... .

Birinchi ustunda oxirgi misol  $10 \cdot 10$  bo'lishi kerak.

584.  $10 \cdot 6 \quad 10 \cdot 4 \quad 7 \cdot 10 \quad 50 : 5 \quad 9 \cdot 1$   
 $6 \cdot 10 \quad 40 : 10 \quad 70 : 10 \quad 90 : 10 \quad 9 \cdot 10$   
 $60 : 10 \quad 4 \cdot 10 \quad 70 : 7 \quad 40 : 4 \quad 9 : 9$   
 $60 : 6 \quad 40 : 4 \quad 10 \cdot 7 \quad 80 : 10 \quad 90 : 9$

585. Tenglamalarni yeching:

$$x \cdot 2 = 4 \quad 20 : x = 20 \quad x : 1 = 42$$

586. Jadvalni to'ldiring:

Qo'shiluvchi	34		28	37		26
Qo'shiluvchi	8	6	46		16	9
Yig'indi		61		81	30	





587. Jadvalni to'ldiring:

Kamayuvchi	70	54		17	51	
Ayiriluvchi	46		36		44	29
Ayirma		27	18	8		14

588. Masalani yeching:

Bir qavatda 8 ta deraza bor. 3 ta qavatda nechta deraza bor?

589. Shavkatning 23 ta, akasining esa undan 4 ta ortiq otkritkasi bor. Ikkalasining nechta otkritkasi bor?



### Mustahkamlash uchun mashqlar

1.



Rasm bo'yicha bunday yechiladigan masalalar tuzing:

$6 + 2$

$3 + 1$

$5 + 4$

$\square + \square$

$6 - 2$

$3 - 1$


$5 - 4$

$\square - \square$

2.  $65 + 7$      $64 + 29$      $9 + 74$      $65 + 35$      $19 + 19$   
 $24 + 49$      $27 + 66$      $18 + 18$      $58 + 16$      $19 + 18$   
 $78 + 6$      $43 + 26$      $48 + 9$      $35 + 27$      $19 + 17$

3.  $42 - 5$      $80 - 68$      $61 - 44$      $69 - 45$      $51 - 14$   
 $58 - 27$      $100 - 3$      $23 - 9$      $15 - 15$      $51 - 15$

4. Bu misollarni kim tez yechadi?



5.  $91 - 37 - 24$      $88 - 24 - 48$      $64 - 9 + 16$   
 $86 - 27 - 25$      $37 - 19 + 14$      $33 - 27 + 45$   
 $92 - 36 - 32$      $36 + 35 - 26$      $81 + 17 - 18$

6.  $6 \cdot 5 \dots 6 \cdot 4$      $9 \cdot 3 \dots 3 \cdot 9$   
 $8 \cdot 5 \dots 8 \cdot 4$      $7 \cdot 8 \dots 7 \cdot 9$   
 $10 \cdot 3 \dots 3 \cdot 9$      $4 \cdot 9 \dots 4 \cdot 10$

7.  $47 : 47$      $67 \cdot 1$      $(75 - 74) \cdot 18$      $35 : 1$   
 $1 \cdot 59$      $94 : 94$      $19 : (34 - 33)$      $1 \cdot 35$

$40 : 10 \cdot 5$      $3 \cdot 10 - 24$      $90 : 10 + 51$   
 $60 : 6 \cdot 8$      $10 \cdot 9 - 85$      $(92 - 84) \cdot 10$

8. 1)  $5 \text{ sm} = \square \text{ mm}$      $60 \text{ mm} = \square \text{ sm}$   
 $9 \text{ sm} = \square \text{ mm}$      $70 \text{ mm} = \square \text{ sm}$   
 $40 \text{ dm} = \square \text{ m}$      $40 \text{ sm} = \square \text{ dm}$


2)  $6 \text{ sm} > \square \text{ mm}$      $80 \text{ mm} < \square \text{ sm}$   
 $3 \text{ sm} < \square \text{ mm}$      $4 \text{ dm} < \square \text{ sm}$   
 $50 \text{ mm} > \square \text{ sm}$      $8 \text{ m} > \square \text{ dm}$

9. Tenglamalarni yeching:


$k - 16 = 30$      $38 + x = 70$      $90 - x = 34$   
 $x \cdot 2 = 10$      $6 : a = 2$      $x : 4 = 10$

- 10.** Masalalarni yeching. Har bir masalaga 2 tadan teskari masala tuzing va ularni yeching:
- 1) Ikki taxlamda 78 ta taxta bor. Ulardan birida 51 ta taxta bor. Ikkinchi taxlamda nechta taxta bor?
  - 2) Po'lat uydan quduq tomonga 34 qadam bosdi, quduqqacha yana 28 ta qadam qoldi. Uydan quduqqacha necha qadam?
  - 3) Bir oynachi 18 ta derazaga, ikkinchisi 15 ta derazaga oyna soldi. Birinchi oynachi ikkinchisiga qaraganda nechta ortiq derazaga oyna solgan?
  - 4) Xo'jalikdan tegirmonga 52 qop bug'doy, bundan 8 qop ortiq javdar olib kelindi. Tegirmonga necha qop javdar olib kelingan?
- 11.** 40 kg pecheniyni har yashikka 10 kg dan qilib joylash uchun nechta yashik kerak bo'ladi?
- 12.** G'oz 5 kg, qo'zichoq g'ozdan 6 kg og'ir, buzoq esa qo'zichoqdan 41 kg og'ir. Buzoq necha kilogramm?
- 13.** Tikuvchilik ishxonasida 36 m uzunlikda bir to'p jun gazlama bor edi. Shundan 11 m ko'y-laklarga ishlatildi. To'pda qolganidan necha metr kam jun gazlama ishlatilgan?
- 14.** Uyni ta'mirlash uchun birinchi kuni 18 ta to'sin, ikkinchi kuni birinchi kungidan 4 ta ortiq, uchinchi kuni birinchi va ikkinchi kuni birgalikda qancha bo'lsa, shuncha to'sin keltirildi. Uchinchi kuni nechta to'sin keltirilgan?
- 15.** Ikkita kesma chizing: birining uzunligi 32 mm, ikkinchisi undan 5 mm qisqa bo'lsin. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha bo'ladi?


16.  $AB$  kesmani  $CD$ ,  $BK$  va  $OC$  kesmalar bilan sirkul yordamida taqqoslang:



17. Chizmada nechta uchburchak bor? Nechta to'rtburchak bor? Bu shakllar nima deb ataladi? Ularning tomonlarini o'lchang. To'g'ri burchaklarni toping va ularning nomlarini yozing:



18. Shunday beshburchaklar chizing. Birinchi beshburchakda shunday bitta kesma o'tkazingki, bitta uchburchak va bitta to'rtburchak hosil bo'lsin, ikkinchisida esa ikkita to'rtburchak hosil bo'lsin:



19. Bu shaklda 2 ta cho'pni shunday olingki, 5 ta shunday kvadrat qolsin:



## JADVALLI KO'PAYTIRISH VA BO'LISH

### Ikkinchi ko'paytirish va 2 ga bo'lish



$$2 + 2 = 4$$

$$2 \cdot 2 = \square$$



$$2 + 2 + 2 + 2 = 8$$

$$2 \cdot 4 = \square$$



$$2 + 2 + 2 = 6$$

$$2 \cdot 3 = \square$$



$$2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$$

$$2 \cdot 5 = \square$$

$$2 \cdot 2 = 4$$

$$2 \cdot 4 = 8$$

$$2 \cdot 3 = 6$$

$$2 \cdot 5 = 10$$

Ko'paytirish jadvalini o'qing va daftaringizga yozing. Jadvalni yodlab oling.

590.

$$2 \cdot 2 + 2$$

$$2 \cdot 3 + 2$$

$$2 \cdot 4 + 2$$

$$2 \cdot 5 + 2$$

591.

4 ta quyoning har biriga 2 tadan sabzi berishdi. Quyonglarga hammasi bo'lib nechta sabzi berilgan?



Masalani yeching.


ko'paytirish

jadvalidan


foydalanib

592.  $15 + 15 + 15$   
 $83 - (15 + 15)$


$30 + 30 + 30$   
 $100 - (30 + 30)$




$2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 =$   
 $= 12$   
 $2 \cdot 6 = \square$



$2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 =$   
 $= 14$   
 $2 \cdot 7 = \square$



$2 + 2 + 2 + 2 + 2 +$   
 $+ 2 + 2 + 2 = 16$   
 $2 \cdot 8 = \square$



$2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 +$   
 $+ 2 + 2 + 2 = 18$   
 $2 \cdot 9 = \square$

$2 \cdot 6 = 12$

$2 \cdot 7 = 14$

$2 \cdot 8 = 16$

$2 \cdot 9 = 18$

Ko'paytirish jadvalini o'qing va daftaringizga yozing. Jadvalni yodlab oling.

593.



2 kg



2 kg



2 kg



2 kg

Har bir bosh karamning massasi 2 kg. 5 bosh karamning massasi qancha? 8 bosh karamning-chi?

594.  $2 \cdot 6 + 2$        $2 \cdot 7 + 2$        $2 \cdot 8 + 2$        $2 \cdot 9 + 2$

595. Rasm bo'yicha masalani yeching:

Bufetga keltirishdi	Bir kunda sotishdi
	7 litr

Yana necha litr pomidor sharbati qolgan?

Yechilishi:

1)  $2 \cdot 6 = \square /$



2)  $12 - 7 = \square /$

Javob: 5 l.

596.  $80 - (67 - 60)$      $7 + 86$      $42 + 50$      $26 + 17$

597.

Rasm bo'yicha masala tuzing va yeching:



598.  $2 \cdot 8$      $47 - 29$      $2 \cdot 6$      $70 - 38$      $16 \cdot 0$



599. To'rtta kichik chodirning har birida 2 ta sayyoh, katta chodirda esa 12 ta sayyoh bor. Bu chodirlarning hammasida qancha sayyoh bor?

Yechish rejasi

- 1) To'rttala kichik chodirda nechta sayyoh bor?
- 2) Hamma chodirda nechta sayyoh bor?

600. Yozuvlarni qarang va yechishni tushuntiring:

$$\begin{array}{r} 2 \cdot 5 + 8 = \square \\ \hline 2 \cdot 5 = 10 \\ 10 + 8 = 18 \end{array}$$

601. Misollarning yechilishini tushuntiring:

$2 \cdot 7 + 6$

$2 \cdot 9 - 14$

$2 \cdot 8 + 21$

$2 \cdot 2 = 4$

$2 \cdot 5 = 10$

$2 \cdot 8 = 16$

$2 \cdot 3 = 6$

$2 \cdot 6 = 12$

$2 \cdot 9 = 18$

$2 \cdot 4 = 8$

$2 \cdot 7 = 14$

602. 2 ni ko'paytirish jadvalidan foydalanib, ifodalar va sonlarni taqqoslang:

$2 \cdot 7 \dots 14$

$2 + 2 + 2 + 2 \dots 2 \cdot 5$

$2 \cdot 4 \dots 7$

$2 + 2 + 2 + 2 + 2 \dots 2 \cdot 5$

603.

Masalaga mos sxematik rasm chizing va masalani yeching:

Bir taqsimchada 2 ta olma bor. 4 ta shunday taqsimchada nechta olma bo'ladi?

604.

$2 \cdot 8 + 18$

$(37 - 36) \cdot 18$

$2 \cdot 7 + 17$

$2 \cdot 9 - 9$

$72 : (34 + 38)$

$2 \cdot 10 - 15$



$2 : 2 = \square$

$8 : 2 = \square$

$14 : 2 = \square$

$4 : 2 = \square$

$10 : 2 = \square$

$16 : 2 = \square$

$6 : 2 = \square$

$12 : 2 = \square$

$18 : 2 = \square$



**605.** Misollarni 2 ga bo'lish jadvalidan foydalanib yeching:

$16 : 2 + 57$

$18 : 2 + 26$

$12 : 2 + 11$

$16 : 2 + 9$

$14 : 2 - 5$

$10 : 2 - 3$

$2 \cdot 2 = 4$

$4 : 2$

$2 \cdot 3 = 6$

$3 \cdot 2$

$6 : 2$

$6 : 3$

$2 \cdot 4 = 8$

$4 \cdot 2$

$8 : 2$

$8 : 4$

$2 \cdot 5 = 10$

$5 \cdot 2$

$10 : 2$

$10 : 5$

$2 \cdot 6 = 12$

$6 \cdot 2$

$12 : 2$

$12 : 6$

$2 \cdot 7 = 14$

$7 \cdot 2$

$14 : 2$

$14 : 7$

$2 \cdot 8 = 16$

$8 \cdot 2$

$16 : 2$

$16 : 8$

$2 \cdot 9 = 18$

$9 \cdot 2$

$18 : 2$

$18 : 9$

**606.** 2 ga bo'lish jadvalini o'qing. Bo'linma 2 ga teng bo'lgan bo'lish jadvalini o'qing. Bu jadvallarni yodlab oling.

**607.** Har bir satr bo'yicha masala tuzing va yeching:

	Bahosi	Miqdori	Jami puli
I	8 so'm	2 ta	?
II	?	2 ta	8 so'm
III	2 so'm	9 ta	?

**608.** Tasma va uning qismlari uzunliklarini o'lchang, so'ngra bo'lishga doir masala tuzing:



**609.**  $10 : 2 + 16$        $6 : 2 + 8$        $16 : 2 + 84$        $40 : 10 + 8$



## Uchni ko'paytirish va 3 ga bo'lish



$$3 + 3 = 6$$

$$3 \cdot 2 = \square$$



$$3 + 3 + 3 + 3 + 3 = 15$$

$$3 \cdot 5 = \square$$



$$3 + 3 + 3 + 3 = 12$$

$$3 \cdot 4 = \square$$



$$3 + 3 + 3 = 9$$

$$3 \cdot 3 = \square$$

$$3 \cdot 2 = 6$$

$$3 \cdot 4 = 12$$

$$3 \cdot 3 = 9$$

$$3 \cdot 5 = 15$$

610.  $3 \cdot 2 + 3$      $3 \cdot 3 + 3$      $3 \cdot 4 + 3$      $3 \cdot 5 + 3$

611.



Hilola qo'g'irchoqlar uchun 5 ta ko'ylak tikdi. Har bir ko'ylakka 2 m dan lenta ketdi. Hilola hammasi bo'lib necha metr lenta ishlatgan?


612. Bir yostiqlikda 3 ta tugma, ikkinchisiga 2 ta ko'p tugma qadashdi. Hammasi bo'lib nechta tugma qadashdi?

613.  $2 \cdot 8 + 25$        $(32 + 28) : 1$        $(75 - 35) : 10$   
 $9 \cdot 2 - 9$        $(81 - 67) : 7$        $(38 + 52) : 9$


614.

Masalaga mos rasm chizing va masalani yeching:  
 12 ta olmani 3 taqsimchaga teng qilib qo'yishdi.  
 Har qaysi taqsimchaga nechtdan olma qo'yishdi?

615.  $3 \cdot 3$        $9 \cdot 2$        $2 \cdot 6$        $9 + 7 - 8$   
 $2 \cdot 7$        $3 \cdot 5$        $4 \cdot 3$        $8 + 5 - 6$



$3 + 3 + 3 + 3 + 3 +$   
 $+ 3 = 18$   
 $3 \cdot 6 = \square$



$3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 +$   
 $+ 3 = 21$   
 $3 \cdot 7 = \square$



$3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 +$   
 $+ 3 + 3 = 24$   
 $3 \cdot 8 = \square$



$3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 +$   
 $+ 3 + 3 + 3 = 27$   
 $3 \cdot 9 = \square$

$3 \cdot 6 = 18$

$3 \cdot 7 = 21$

$3 \cdot 8 = 24$

$3 \cdot 9 = 27$

616.  $3 \cdot 6 + 3$        $3 \cdot 7 + 3$        $3 \cdot 8 + 3$        $3 \cdot 9 + 3$

617.



12 ta bayroqchani 3 tadan qilib yoyib chiqishdi.  
 Necha marta 3 tadan bayroqcha bo'ldi?

$618. \quad 3 \cdot 8 + 16$

$7 \cdot 3 + 49$

$2 \cdot 8 + 26$

619. Ko'ylakka 3 m chit ketadi. 9 ta ko'ylak tikishganidan keyin yana 35 m chit qoldi. Oldin necha metr chit bo'lgan?

1)  $3 \cdot 9 = 27$  (m)

2)  $27 + 35 = \square$  (m)

Masalaning yechilishini tushuntiring.

620.

Karima 24 so'mga yon daftarcha, qolgan puliga 10 so'mdan ukalariga 6 ta konfet sotib oldi. Karimaning qancha puli bo'lgan?

621.




$7 \cdot 6 < 7 \cdot 7$

$8 : 2 \dots 10 : 2$

$10 \cdot 2 \dots 9 \cdot 2$

$12 : 2 \dots 12 : 6$



$3 : 3 = \square$

$12 : 3 = \square$

$21 : 3 = \square$

$6 : 3 = \square$

$15 : 3 = \square$

$24 : 3 = \square$

$9 : 3 = \square$

$18 : 3 = \square$

$27 : 3 = \square$

$3 \cdot 3 = 9$

$9 : 3$

$3 \cdot 4 = 12$

$4 \cdot 3$

$12 : 3$

$12 : 4$

$3 \cdot 5 = 15$

$5 \cdot 3$

$15 : 3$

$15 : 5$

$3 \cdot 6 = 18$

$6 \cdot 3$

$18 : 3$

$18 : 6$

$3 \cdot 7 = 21$

$7 \cdot 3$

$21 : 3$

$21 : 7$

$3 \cdot 8 = 24$

$8 \cdot 3$

$24 : 3$

$24 : 8$

$3 \cdot 9 = 27$

$9 \cdot 3$

$27 : 3$

$27 : 9$

622.

3 ga bo'lish jadvalini o'qing. Bo'linma 3 ga teng bo'lgan bo'lish jadvalini o'qing. Bu jadvallarni yodlab oling.

623. Misollarni jadvaldan foydalanib yeching:

$27 : 3 + 18$

$24 : 3 : 2$

$15 : 3 + 7$

$21 : 3 - 6$

$18 : 3 : 2$

$12 : 3 + 8$

624. Aziz 10 soʻmdan 7 varaq rangli qogʻoz va 21 soʻmga chizgʻich sotib oldi. Aziz hammasi boʻlib necha soʻm sarfladi?

625.

$3 \cdot 8 - 15$

$9 \cdot 2 + 26$

$14 + (14 - 9)$

$3 \cdot 9 + 13$

$8 \cdot 2 + 18$

$81 - (52 + 27)$

626. Qisqa yozuv boʻyicha masala tuzing va yeching:

Bor edi — ? ta marka

Berishdi — 8 ta marka

Boʻldi — 23 ta marka



627. 1) Har qaysi guldonga 2 tadan gul qoʻyish kerak. 10 ta gul nechta guldonga qoʻyiladi? Ortiqcha gul qoladimi?



2) Oldingi masaladagi 10 sonini 6, 7, 8, 9 sonlari bilan almashtiring va rasmdan foydalanib, yangi masalalarni ogʻzaki yeching.

3) 6, 7, 8, 9, 10 sonlarining qaysilari 2 ga qoldiqsiz boʻlinadi?

2 ga qoldiqsiz boʻlinadigan sonlar **juft** sonlar, 2 ga qoldiqsiz boʻlinmaydigan sonlar **toq** sonlar deyiladi.

628. 18, 10, 28, 9, 7, 1, 6, 14, 3, 19 sonlar qatoridan oldin hamma toq sonlarni, keyin hamma juft sonlarni ko'chirib yozing.

629. Tushirib qoldirilgan sonlarni qo'ying:

$$3 \cdot \square = 21$$

$$2 \cdot \square = 18$$

$$\square \cdot \square = 16$$

630. Tomonlari 3 sm 5 mm va 4 sm 5 mm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uni harflar bilan belgilang va qarama-qarshi tomonlarini ayting.



**Yodda tuting!** To'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari teng.

631.

Masalaga doir sxematik rasm chizing va masalani yeching: 12 ta o'g'il bola o'ynash uchun 3 ta jamoaga teng bo'lindilar. Har bir jamoada nechtdan bola bo'ldi?

632.  $(86 - 59) : 3$        $(89 - 65) : 3$        $3 \cdot 8 + 28$

Namuna:  $(90 - 69) : 3 = 7$

$$\begin{array}{r} 90 \\ - 69 \\ \hline 21 \end{array} \quad 21 : 3 = 7$$



633. 6 litr sutni 2 ta bidonga baravardan quyishdi. Birinchi bidondan 2 litr sut ishlatildi. Shu bidonda necha litr sut qoldi?

Yechish rejasini

1) Bitta bidonda necha litr sut bor?

2) Bu bidonda necha litr sut qoldi?

Masalani yechish rejasini tushuntiring.



- 634.** 1) 18 so'mga ikkita bir xil o'yinchoq mashina va 13 so'mga qo'g'irchoq sotib olishdi. Qo'g'irchoq mashinadan necha so'm qimmat?


Yechish rejasi


- 1) Bitta mashina qancha turadi?  
2) Qo'g'irchoq necha so'm...?

Masalani yechish rejasini tushuntiring.

- 2) Bochkachadan 6 bankaga 3 kg dan asal quyib olinganidan keyin unda 7 kg asal qoldi. Dastlab bochkachada necha kilogramm asal bo'lgan?

**635.**   $4 \dots 1 = 4$        $14 \dots 7 = 2$        $16 \dots 16 = 0$   
 $8 \dots 8 = 1$        $14 \dots 7 = 21$        $8 \dots 0 = 8$

- 636.**  24 ta g'isht teruvchi 3 tadan bo'lib guruhlarga bo'linishdi. Necha guruh hosil bo'ldi?

**637.**   $2 \cdot 6 - 5$        $16 : 2 + 71$        $52 - 24 + 18$        $5 \cdot 10$   
 $2 \cdot 8 - 9$        $15 : 3 + 49$        $52 - (24 + 18)$        $0 \cdot 7$

### Mustahkamlash uchun mashqlar

- |                     |                  |                    |           |
|---------------------|------------------|--------------------|-----------|
| 1. $2 \cdot 9 - 9$  | $2 \cdot 7 - 8$  | $2 \cdot 8 - 7$    | $67 : 67$ |
| $2 \cdot 4 + 73$    | $2 \cdot 5 + 56$ | $2 \cdot 6 + 35$   | $84 : 1$  |
| 2. $16 : 2 + 7$     | $7 \cdot 2 - 9$  | $44 - 25 + 30$     |           |
| $6 \cdot 2 + 33$    | $18 : 2 + 18$    | $72 - 51 + 27$     |           |
| 3. $3 \cdot 5 + 64$ | $3 \cdot 7 + 15$ | $3 \cdot 6 - 11$   |           |
| $3 \cdot 8 - 16$    | $3 \cdot 2 + 90$ | $3 \cdot 3 - 9$    |           |
| 4. $27 : 3 - 9$     | $(15 + 3) : 3$   | $2 \cdot (17 - 9)$ |           |
| $24 : 3 + 56$       | $(76 - 55) : 3$  | $3 \cdot (17 - 9)$ |           |

5. Tenglamalarni yeching:

$$6 + x = 14$$

$$24 - x = 11$$

$$x \cdot 3 = 24$$

$$x : 3 = 7$$

$$x : 7 = 3$$

$$81 : x = 9$$

6.

Qo'shiluvchi	4		14		9	
Qo'shiluvchi		10		20		3
Yig'indi	30	56	70	63	80	100

7.

Kamayuvchi		36		48		65
Ayriluvchi	3		24		53	
Ayirma	19	11	16	14	5	0

8.

Ko'paytuvchi	2	2	3	3	4	4
Ko'paytuvchi	3	5	4	2	3	2
Ko'paytma			12			

Namuna (og'zaki).  $3 \cdot 4 = 3 + 3 + 3 + 3 = 12$ .

9.

Bo'linuvchi	49		72	54	18	20
Bo'linuvchi		8		6	3	
Bo'linma	7	5	9			2

10. Bir to'pda 25 m, ikkinchi to'pda 14 m ortiq shoyi bor. Ikkala to'pda hammasi bo'lib qancha shoyi bor?

11. Do'konda 17 kg sariyog' bor edi. Yana 32 kg sariyog' keltirishdi. Bir kunda 29 kg sariyog' sotildi. Qancha sariyog' qoldi?


12. Yonilg'i quyish shoxobchasida uchta yengil mashinaga 100 l benzin quyib berildi. Bir mashinaga 35 l,






ikkinchisiga 25 l benzin quyildi. Uchinchi mashinaga necha litr benzin quyilgan?

13. 1) Agar bir yostiq 2 kg kelsa, 8 yostiqning massasi qancha bo'ladi?  
2) Agar bir bidon yog' 8 kg kelsa, shunday 2 bidon yog'ning massasi qancha bo'ladi?
14. Lentadan har biri 2 m dan 6 bo'lak lenta qirqib olishdi. Hammasi bo'lib necha metr lenta qirqib olingan?
15. Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma undan 4 sm uzun, uchinchi kesmaning uzunligi ikkinchi kesmaning uzunligidan 2 sm kam. Uchinchi kesmaning uzunligini toping:



16. Xaridor 9 so'mdan 3 ta qalam va 12 so'mga daftar sotib oldi. Xaridor hamma xarid uchun qancha to'lagan?
17. Cho'plardan shunday shakllar tuzing. Birinchi shaklda 4 ta cho'pning o'rnini shunday almashtiringki, 4 ta uchburchak hosil bo'lsin. Ikkinchi shaklda 3 ta cho'pning o'rnini shunday o'zgartiringki, 4 ta kvadrat hosil bo'lsin:



18. Hamma uchburchaklar nechta?



19. Kvadrat qismlaridan shunday shakllar tuzing:



20. Misollarni yeching va javoblarni ortib borish tartibida yozing. Shunda siz Toshkent metrosining Chilonzor yo'lidagi bekatlari ketma-ketligini bilib olasiz:

$4 \cdot 8$

Hamza

$60 - 6$

Xalqlar  
do'stligi

$4 \cdot 5$

Chilonzor

$10 \cdot 9$

Buyuk  
ipak yo'li

$3 \cdot 6$

Sobir  
Rahimov

$60 + 21$

Pushkin

$3 \cdot 9$

Mirzo  
Ulug'bek

$20 + 15$

Yoshlik

$32 + 32$

Amir  
Temur  
xiyoboni

$90 - 18$

Hamid  
Olimjon

$41 + 15$

Paxtakor

$100 - 37$

Mustaqillik  
maydoni



## To'rtini ko'paytirish va 4 ga bo'lish

638.



$4 \cdot 4 = 16$	$4 \cdot 6 = 24$	$4 \cdot 8 = 32$
$4 \cdot 5 = 20$	$4 \cdot 7 = 28$	$4 \cdot 9 = 36$

639.  $4 \cdot 9$      $4 \cdot 7$      $4 \cdot 4$      $33 - (14 + 17)$      $72 : 72$   
 $5 \cdot 4$      $6 \cdot 4$      $8 \cdot 4$      $67 - (29 + 34)$      $51 : 1$

640. Masalaga teskari ikkita masala tuzing va ularni yeching:

16 ta koptokni 2 tadan qilib quruhlarga ajratishdi. Nechta guruh hosil bo'ldi?

641.



11 kg



15 kg



59 kg

Rasmdan foydalanib,  $11 + 15$ ,  $11 + 59$ ,  $11 + 15 + 59$ ,  $15 - 11$ ,  $59 - 15$  ifodalar nimani bildirishini tushuntiring.

642.


$3 \cdot 9 + 3$	$3 \cdot 6 : 9$	$(32 - 17) : 3$	$24 : 8$
$3 \cdot 8 + 3$	$21 : 7 \cdot 5$	$(71 - 47) : 3$	$27 : 9$

643. Maktab bog'ida 58 tup behi va o'rik daraxtlari bor. Agar behi 19 tup bo'lsa, o'rik behidan necha tup ko'p?

**644.** Jadvalning har bir ustunini o'qing. Jadvalni yodlab oling:

$4 \cdot 4 = 16$		$16 : 4$	
$4 \cdot 5 = 20$	$5 \cdot 4$	$20 : 4$	$20 : 5$
$4 \cdot 6 = 24$	$6 \cdot 4$	$24 : 4$	$24 : 6$
$4 \cdot 7 = 28$	$7 \cdot 4$	$28 : 4$	$28 : 7$
$4 \cdot 8 = 32$	$8 \cdot 4$	$32 : 4$	$32 : 8$
$4 \cdot 9 = 36$	$9 \cdot 4$	$36 : 4$	$36 : 9$

**645.**  $9 \cdot 4$  |  $4 \cdot 4$  |  $28 : 4$  |  $60 + (40 - 38)$  |  $19 + 64$   
 $4 \cdot 8$  |  $24 : 6$  |  $36 : 9$  |  $40 - (16 - 9)$  |  $73 - 55$

**646.**   $4 \dots 7 = 28$      $36 \dots 4 = 9$      $4 \dots 4 = 1$   
 $4 \dots 7 = 11$      $36 \dots 4 = 32$      $4 \dots 4 = 0$

Bu misollarning har birida 4 soni nimani bildiradi?

**647.** Vali bolalar bog'chasiga sovg'a qilish uchun qo'g'ozdan 40 ta turli o'yinchoq, Umar esa undan 3 ta kam o'yinchoq yasadi. Bolalar birgalikda nechta o'yinchoq yasashdi? Masala savolini shunday o'zgartiringki, u bir amal bilan yechiladigan bo'lsin.

**648.** Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing. Masalaning yechilishini daftaringizga yozing:

Bor edi — ?

Sarflashdi — 6 kg va 8 kg

Qoldi — 26 kg

**649.** 13 kg loviya va 9 kg mosh olib kelishdi. 15 kg donni sarflashdi. Necha kilogramm don qolgan? Masalani ushbu sxemadan foydalanib yeching:

$$(\square + \square) - \square.$$



650.

--	--	--	--

1) Uzunligi 12 sm bo'lgan tasma oling. Uni buklash bilan 2 ta teng qismga bo'ling. Har qaysi qism bu tasmaning yarmi. Tasmaning yarmi necha santimetr ekanini topamiz:

$12 : 2 = 6$  (sm). O'lchash bilan tekshiring.

2) Tasmani buklash bilan 4 ta teng qismga bo'ling. Shu tasmaning to'rtidan bir qismi necha santimetr ekanini toping. O'lchash bilan tekshiring.

651. Uzunligi 6 sm bo'lgan tasma oling. Shu tasmaning uchdan bir qismida necha santimetr borligini toping. O'lchash bilan tekshiring.

652. 100 kg bug'doyni tortish natijasida 2 kg yorma va 80 kg un hosil bo'ladi. Qolgan qismni yem tashkil qildi. Qancha yem hosil bo'lgan?

653.  $28 : 7 \cdot 9$        $(41 - 20) : 3$        $60 : 10$

654. Daftaringizga tomonlari 2 sm va 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uning perimetrini toping.

655.  $3 \cdot 3 + 64$        $4 \cdot 4 + 48$        $4 \cdot 9 - 24$        $2 \cdot 9 + 78$



656. 1) Daraxtning shoxiga 8 ta qush qo'nib turgan edi. Bir nechta qush uchib ketganidan keyin 3 ta qush qoldi. Nechta qush uchib ketgan?



Bor edi

?



Qoldi

2) Ikkita teskari masala tuzing va yeching.

657.  $x + 23 = 69$      $20 - x = 3$      $2 \cdot x = 18$      $x : 3 = 6$

658. Rasm va qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing:



Masalani sxema bo'yicha ikki usul bilan yeching:

Bor edi — 45

Ketdi — 3 va 2

Qoldi — ?

I usul

$$(\square - \square) - \square$$

II usul

$$\square - (\square + \square)$$

659.  $(43 - 23) : 4$      $24 : 4 \cdot 3$      $70 - (53 - 27)$   
 $(19 + 8) : 9$      $32 : 8 \cdot 9$      $91 - (68 - 39)$

660. Shunday sonlar qo'yingki, tenglik va tengsizliklar to'g'ri bo'lsin:

$$6 \text{ sm } 5 \text{ mm} = \square \text{ mm}$$

$$81 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$$

$$4 \text{ m } 7 \text{ dm} < \square \text{ dm}$$

$$5 \text{ sm } 4 \text{ mm} > \square \text{ mm}$$

661.  $4 \cdot 8$      $3 \cdot 9$      $7 \cdot 3$      $6 \cdot 4$      $5 \cdot 3$   
 $3 \cdot 8$      $2 \cdot 9$      $7 \cdot 4$      $6 \cdot 3$      $5 \cdot 4$



Doirachalar 4 ta. Kvadratlar shuncha va yana 3 ta. Kvadratlar doirachalardan **3 ta ortiq**, doirachalar esa kvadratlardan **3 ta kam**.

$$4 + 3 = 7 \quad 7 - 4 = 3$$



Doirachalar 4 ta. Kvadratlar 4 tadan 3 marta. Kvadratlar doirachalardan **3 marta ortiq**, doirachalar esa kvadratlardan **3 marta kam**.

$$4 \cdot 3 = 12 \quad 12 : 4 = 3$$

662. Har qaysi masalaga doir sxematik rasm chizing va masalani yeching:

1) Shavkat 9 ta, Temur esa undan 2 ta ortiq bayroqcha yasadi. Temur nechta bayroqcha yasadi?

2) Shavkat 9 ta, Temur esa undan 2 marta ko'p bayroqcha yasadi. Temur nechta bayroqcha yasadi? Masalalarni va ularning yechimlarini taqqoslang.

663. Ikkita tasma qirqing: birining uzunligi 2 sm, ikkinchisi undan 3 marta uzun bo'lsin. Ikkinchi tasmaning uzunligi qancha?

664.  $36 : 9$  |  $21 : 7$  |  $7 \cdot 4$  |  $50 + (48 - 39)$  |  $65 - 27$   
 $32 : 8$  |  $24 : 3$  |  $6 \cdot 4$  |  $90 - (55 + 17)$  |  $44 + 47$

665.



12 kg



15 kg



3 kg

12 kg kartoshka va 15 kg pomidor har bir yelim xaltaga 3 kg dan joylandi. Nechta xalta kerak bo'lgan? Ifoda sxemasi bo'yicha masala tuzing va yeching:  $(\square + \square) : \square$ .

666.

Sxema bo'yicha masala tuzing. Masalani amallar bo'yicha yeching:

Teraklar — 20



Tollar



Chinorlar



?

667.  $37 + 53 + 10$        $4 \cdot 5 + 32$        $9 \cdot 3 + 17$   
 $100 - 6 - 47$        $9 \cdot 4 - 18$        $8 \cdot 4 - 26$



668. Har bir masalaga doir sxematik rasm chizing va masalalarni yeching:

1) Saodat 6 ta, Yulduz esa undan 4 ta ortiq bayroqcha qirqdi. Yulduz nechta bayroqcha qirqdi?

2) Saodat 6 ta, Yulduz esa undan 4 marta ko'p bayroqcha qirqdi. Yulduz nechta bayroqcha qirqdi?

Masalalar va ular yechimlarini taqqoslang. 1-masalaning savolini shunday o'zgartiringki, u ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin. Yangi masalani yeching.

669.

4 marta orttiring				
7	8	4	5	9

4 ta orttiring		
36	72	89

### Yodingizda tuting!

Sonni bir necha marta orttirish uchun sonlar ko'paytiriladi, bir necha birlik orttirish uchun esa sonlar qo'shiladi.

670. Taomga 9 dona piyoz, piyozga qaraganda 3 marta ko'p sabzi, sabzidan 3 ta ko'p kartoshka solindi. Taomga qancha kartoshka solindi?

671.  $15 : 3$        $8 \cdot \square = 24$        $\square \cdot \square = 12$   
 $16 : 4$        $32 : \square = 8$        $\square \cdot \square = 18$

672.

1) O'quvchi birinchi kuni kitobdan 9 bet o'qidi, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 2 bet ortiq



o'qidi. O'quvchi ikkinchi kuni necha bet kitob o'qigan?

2) O'quvchi qiz birinchi kuni kitobdan 9 bet o'qidi, ikkinchi kuni esa birinchi kundagidan 2 marta ko'p o'qidi. O'quvchi qiz ikkinchi kuni necha bet kitob o'qigan?

Bu masalalar va ularning yechilishlari nimasi bilan o'xshaydi va nimasi bilan farq qiladi?

673.  $9 \cdot 2$        $24 : 6$        $28 : 7$        $68 + (80 - 65)$   
 $8 \cdot 3$        $18 : 3$        $20 : 4$        $75 - (27 + 39)$



674. 1) Doirachalar 6 ta, uchburchaklar esa undan 3 marta kam. Uchburchaklar nechta?



Masala savoliga javob berish uchun 6 ni nechta teng bo'lakka bo'lish kerak? Yechishni yozing.

2) Taqsimchada 8 ta olma, undan 2 marta kam nok bor. Taqsimchada nechta nok bo'lgan? Yechimni yozing va uni rasm chizib tekshiring.

675.  $27 : 3$        $21 : 7$        $20 : 5 \cdot 9$        $(95 - 88) \cdot 4$   
 $9 : 3$        $14 : 7$        $6 \cdot 4 : 8$        $(61 - 29) : 8$


676. Uzunligi 41 m bo'lgan bir bo'lak simdan 5 m qirgib olishdi. Qolgan simni 4 ta teng bo'lakka bo'lishdi. Har bir bo'lak necha metrga teng?

677. Bu shakllar orasida to'rtburchaklar ko'pmi yoki to'g'ri to'rtburchaklar ko'pmi?



678.

Birinchi kuni do'konga 18 qop un, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 3 qop ortiq un keltirishdi. Uchinchi kuni ikkinchi kuni qancha un keltirilgan bo'lsa, shuncha keltirildi. Uch kunda do'konga qancha un keltirilgan?




679.

$4 \cdot 7$  |  $3 \cdot 8$  |  $4 \cdot 9$  |  $4 \cdot 6$  |  $4 \cdot 5$  |  $18 \cdot 1$   
 $3 \cdot 7$  |  $4 \cdot 8$  |  $3 \cdot 9$  |  $3 \cdot 6$  |  $3 \cdot 5$  |  $19 \cdot 1$



680. Rasm bo'yicha masalalar tuzing va uni yeching:



681.

4 ta kamaytiring				
4	80	6	91	12

4 marta kamaytiring				
16	32	28	36	12

### Yodingizda tuting!

Sonni bir necha marta kamaytirish uchun son o'sha birlikka bo'linadi, bir necha birlik kamaytirish uchun sondan o'sha birlik ayiriladi.

682.  $24 : 3$      $3 \cdot 7 + 49$      $60 : 10 \cdot 1$      $4 \cdot 7 - 19$

683. Har bir masalaga doir sxematik rasm chizing va yeching:

1) Bir qutida 28 ta, ikkinchi qutida esa undan 4 ta kam konfet bor. Ikkinchi qutida nechta konfet bor?

2) Bir qutida 28 ta, ikkinchi qutida esa undan 4 marta kam konfet bor. Ikkinchi qutida nechta konfet bor?

Masalalarni va ularning yechimlarini taqqoslang.

684.

Har bir masalaga mos sxematik rasm chizing va masalani yeching:

1) Asqarning 8 ta, Ergashning undan 2 ta kam markasi bor. Kimning markasi ko'p va qancha ko'p?

2) Asqarning 8 ta, Ergashning 2 ta markasi bor. Kimning markasi ko'p? Necha marta ko'p?

685.

$3 \cdot 6 : 9$

$(60 - 33) : 3$

$45 : 45$

$4 \cdot 7 - 19$

$(84 - 60) : 3$

$16 : 1$

### Amallarning bajarilish tartibi

686. Ushbu ifodalarni qaraymiz:

$60 - 40 - 7$

$14 + 6 - 3$

$16 : 2 \cdot 3$

$4 \cdot 3 : 2$

Bu ifodalar qanday amallarni o'z ichiga olgan?

Faqat qo'shish va ayirishni yoki faqat ko'paytirish va bo'lishni o'z ichiga olgan qavssiz ifodalarda amallar qaysi tartibda yozilgan bo'lsa, shu tartibda chapdan o'ngga qarab bajariladi.

687.

$53 - 20 + 4$

$6 \cdot 2 : 3$

$2 \cdot 1 \cdot 4$

$29 + 48$

$19 + 30 - 7$

$15 : 5 \cdot 6$

$9 : 1 : 3$

$71 - 57$


688. 1) Rasmda tasma 2 ta teng qismga (2 ta yarimtaga) bo'lingan.



Yarim – bu butunning ikkita teng qismidan biri.

2) To'g'ri to'rtburchak shaklidagi qog'oz varag'ini teng ikki buklang. Varaqning yarmini ko'rsating. Shu usul bilan doirani teng ikki qismga bo'ling. Doiraning yarmini ko'rsating.

689. Rasmda uzunligi 9 sm va 8 sm bo'lgan ikkita tasma tasvirlangan. Birinchi tasma teng 3 qismga, ikkinchisi esa teng 4 qismga bo'lindi. Tasmaning uchdan biri; to'rtidan biri nimaga teng?



Tasmaning to'rtidan bir qismi chorak deyiladi.

Rasmdan doiraning uchdan bir qismini, to'rtidan bir qismini va yarmini ko'rsating.

690. Ifodalarni taqqoslang:

$$28 : 4 \quad \text{va} \quad 24 : 4$$

$$18 : 2 \quad \text{va} \quad 18 : 3$$

691.  $16 : 4 + 58$

$$2 \cdot 8 + 44$$

$$65 - 29 + 32$$

$$18 : 9 + 27$$

$$3 \cdot 8 + 44$$

$$47 + 47 - 75$$

- 692.** Rasmlardan foydalanib, ifodalar bo'yicha masalalar tuzing:



4 so'm



9 so'm

$$4 \cdot 2 + 9$$

$$9 \cdot 3 - 4$$

$$4 + 9 \cdot 2$$

Bu ifodalarda qanday amallar bor? Bu amallar qanday tartibda bajariladi?

### Yodingizda tuting!

Oldin tartib bilan ko'paytirish va bo'lish, keyin qo'shish va ayirish bajariladi.

$$12 - 4 \cdot 2 = 12 - 8 = 4$$

$$27 : 3 + 5 \cdot 4 = 9 + 20 = 29$$

- 693.**  $16 : 4 + 3 \cdot 8$        $18 : 3 : 2$        $16 - 9 + 37$   
 $32 : 8 + 27 : 9$        $24 : 4 : 3$        $53 - 24 + 18$

- 694.** Har bir masalaga mos sxematik rasm chizing va uni yeching:

1) Bir uy 16 qavatli, ikkinchi yu 8 qavatli. Birinchi uy ikkinchi uydan necha qavat baland?

2) Bir uy 16 qavatli, ikkinchi uy 8 qavatli. Birinchi uydagi qavatlar ikkinchi uydagi qavatlardan necha marta ko'p?

1-masala savolini shunday o'zgartiringki, u ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin. Yangi masalani yeching.

- 695.** Masalalarni va ularning yechimlarini taqqoslang:  
 1) 8 ta qo'ng'iz 2 tadan uchib ketishdi. Qo'ng'izlar necha juft bo'lgan?

Masalaning yechilishini o'qing:

$$8 : 2 = 4 \quad (\text{j.})$$

Javob: 4 juft qo'ng'iz.

2) 8 ta qo'ng'iz 2 ta yaproqqa teng miqdordan qo'nishdi. Bitta yaproqda nechta qo'ng'iz bor?

Masalaning yechilishini o'qing:

$$8 : 2 = 4 \quad (\text{q.})$$

Javob: bitta yaproqda 4 ta qo'ng'iz.

696.

Dilshodning 100 so'm puli bor edi. U bufetdan 49 so'mga somsa, 16 so'mga bir stakan sut sotib oldi. Dilshodning necha so'm puli qoldi?

697.

$$36 + 36 : 9 \quad 20 : 10 + 71 \quad 14 : 7 + 12 : 6$$



$$32 - 32 : 8 \quad 19 : 19 + 82 \quad 18 : 2 + 16 : 8$$

698.

1) Ifodalarning o'xshashligi va farqi nimada:

$$30 - 12 : 3 = 26 \quad (30 - 12) : 3 = 6?$$

2) Har qaysi ifodaning qiymatini topishda amal-larni qanday tartibda bajardingiz?

### Yodingizda tuting!

1) Agar ifodada qavslar bo'lsa, ular ichidagi amal birinchi bajariladi.

2) Ko'paytirish va bo'lish yozilish tartibi bilan bajariladi.

3) Qo'shish va ayirish yozilish tartibi bilan bajariladi.

$$50 - (8 + 16) = 50 - 24 = 26$$

$$70 : (38 + 32) = 70 : 70 = 1$$

$$49 - 21 : 7 = 49 - 3 = 46$$

699. Bolalar issiqxonadan bodring uzdilar. Bir bola 40 ta, ikkinchi bola birinchisidan 4 marta kam, uchinchi bola esa ikkinchi boladan 19 ta ko'p bodring uzdi. Uchinchi bola nechta bodring uzgan?

700.

4 marta kamaytiring			
28	20	32	12

3 marta orttiring			
7	9	4	5

701. Agar  $b = 14$  bo'lsa, har bir ifodaning qiymatini toping:

$$b : 7 \quad b + 48 \quad b + (b - 2) \quad (b + b) : 4$$

702.

Agar  $a = 4$ ,  $a = 3$ ,  $a = 2$  bo'lsa,  $12 : a$  ifodaning qiymatini hisoblang.

703.  $18 - 18 : 9$        $90 - (27 + 19)$        $66 : 66$   
 $15 : 3 + 8$        $36 : (3 \cdot 3)$        $24 \cdot 1$



704. 1) Tikuvchi 4 ta qizlar ko'ylagi tikdi, har qaysi ko'ylakka 2 m dan mato ketdi. Tikuvchi hammasi bo'lib qancha mato sarflagan?



Bitta ko'ylakka mato sarfi	Ko'ylaklar soni	Hamma ko'ylakka ketgan mato miqdori
2 m	4 ta	?
?	4 ta	8 m
2 m	?	8 m

2) Ikkita teskari masala tuzing va yeching.

**705.** Daftarda 10 ta katakni o'rang. Ularning ikkidan bir qismini bo'yang. Nechta katakni bo'yadingiz? Yechimini yozing.

**706.** Shavkatning 8 ta markasi bor. Dinoraning markalari Shavkatning markalaridan 3 marta ko'p. Dilshodning markalari esa Dinoraning markalaridan 4 marta kam. Dilshodning markalari nechta?

**707.** Tekshirish bilan yeching:

$$59 + 18 \qquad 72 - 43$$

**708.**

Bo'lishga doir misolni yeching va har birida bo'luvchining tagiga chizing:

$$24 : 4 \qquad 8 \cdot 3 \qquad 12 : 4 \qquad 7 \cdot 3$$

$$24 - 17 \qquad 15 : 3 \qquad 12 - 4 \qquad 5 \cdot 4$$

**709.**  $4 + 4 + 4 > 4 \cdot 2$        $3 + 3 + 3 + 3 + 3 \dots 3 \cdot 4$



$$7 + 7 + 7 \dots 7 \cdot 4 \qquad 5 + 5 \dots 5 \cdot 3$$

**710.**



$$9 \dots 4 = 36 \qquad 8 \dots 4 = 2 \qquad 7 \dots 4 = 3$$

$$9 \dots 4 = 5 \qquad 8 \dots 4 = 32 \qquad 7 \dots 4 = 28$$

$$9 \dots 4 = 13 \qquad 8 \dots 4 = 12 \qquad 7 \dots 4 = 11$$

**711.** Har qaysi „darcha“ga shunday son qo'yingki, natijada to'g'ri tenglik yoki to'g'ri tengsizlik hosil bo'lsin:

$$9 \cdot 4 < \square \cdot 4 \qquad 3 \cdot \square > 3 \cdot 8 + 3$$

$$4 \cdot 9 + 4 = 4 \cdot \square \qquad 5 \cdot 8 + 5 = 5 \cdot \square$$

**712.** Qavslarni shunday qo'yingki, tengliklar to'g'ri bo'lsin:

$$5 + 3 \cdot 4 = 32$$

$$42 - 20 + 6 = 28$$

$$69 - 40 + 11 = 18$$

$$50 - 18 : 8 = 4$$





713. Qisqa yozuv bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 20 so'm

Sotib olindi – 2 so'mdan 9 ta qalam

Qoldi – ?

714.

Har bir satr bo'yicha masala tuzing va uni yeching:

1 ta narsaning massasi	Narsalar soni	Hamma narsalar massasi
3 kg	7 ta	?
?	3 ta	18 kg
3 kg	?	24 kg

715.  $42 + 34 - 15$        $21 : 7$        $20 : 4$

$61 - 27 - 18$        $24 : 8$        $18 : 6$



### Beshni ko'paytirish va 5 ga bo'lish

716.



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$5 \cdot 5 = 25$		$25 : 5$	
$5 \cdot 6 = 30$	$6 \cdot 5$	$30 : 5$	$30 : 6$
$5 \cdot 7 = 35$	$7 \cdot 5$	$35 : 5$	$35 : 7$

717.  $25 : 5 \cdot 4$        $35 : 7 \cdot 2$        $40 + 5 \cdot 6$   
 $30 : 6 \cdot 3$        $35 : 5 \cdot 4$        $50 + 5 \cdot 7$

718. Fikrlarni o'qing:



Qizil kvadratlar 2 ta, ko'k kvadratlar 5 marta ko'p.

Qizil kvadratlar 2 ta, ko'k kvadratlar esa 5 ta ko'p.

Har qaysi rasmda ko'k kvadratlar nechta?

719.



Maktab oshxonasida har qaysi guldonga 5 tadan gul solib qo'yishdi. 17 ta gul nechta guldonga yetadi? Oxirgi guldonga nechta gul qo'yiladi? Rasmdan foydalanib savollarga og'zaki javob bering.

720.

$5 \cdot 7$	$5 : 5$	$5 \cdot 6 - 11$	$3 \cdot 9 + 15$
$5 \cdot 5$	$30 : 5$	$4 \cdot 9 - 27$	$2 \cdot 9 + 48$

721. Har biri 7 ta guldandan iborat 4 ta guldasta tuzildi. Hammasi bo'lib nechta gul ishlatildi?



722.



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$5 \cdot 8 = 40$	$8 \cdot 5$	$40 : 5$	$40 : 8$
$5 \cdot 9 = 45$	$9 \cdot 5$	$45 : 5$	$45 : 9$

$$723. \quad \begin{array}{lll} 5 \cdot 9 - 28 & (63 - 54) \cdot 5 & 70 : 10 \cdot 5 \\ 8 \cdot 5 : 10 & (16 + 29) : 9 & 60 : 6 \cdot 5 \end{array}$$

724. 1) Ustaxonada 40 ta parta tayyorlandi, stollar esa partalardan 5 marta kam tayyorlandi. Hammasi bo'lib nechta parta va stol tayyorlangan?  
 2) Ustaxonada 40 ta parta tayyorlandi, stollar esa partalardan 5 ta kam tayyorlandi. Hammasi bo'lib nechta parta va stol tayyorlangan?  
 3) Ushbu ifodalar bo'yicha shunga o'xshash masalalar tuzing:

$$1) 32 : 4 + 32 \qquad 2) (32 - 4) + 32$$

725. 1) Birinchi qatorga 4 ta doiracha, ikkinchi qatorga esa 3 marta ko'p doiracha chizing.  
 2) Birinchi qatorga 6 ta doiracha, ikkinchi qatorga 2 marta kam doiracha chizing.




726. Pochta orqali har birida 6 kg dan limon bo'lgan 4 ta yashik va 8 kg mandarin bo'lgan bitta yashik jo'natildi. Hammasi bo'lib necha kilogramm meva jo'natildi?

$$727. \quad \begin{array}{lll} 38 - 29 & 5 \cdot 9 + 36 & 28 : 4 : 7 \\ 47 + 37 & 9 \cdot 4 - 28 & 32 : 8 : 4 \end{array}$$



728. 36 da 4 tadan necha marta bor?  
 Yuqori simdagi soqqalar pastki simdagi soqqalardan necha marta ortiq? Pastki simdagi soqqalar yuqori simdagi soqqalardan necha marta kam?  
 12 da 3 tadan necha marta borligini aniqlaymiz:



$$12 : 3 = 4$$

Demak, yuqori simdagi soqqalar pastki simdagi soqqalardan 4 marta ortiq, pastki simdagi soqqalar yuqori simdagi soqqalardan 4 marta kam.

**729.** Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$5 \cdot 5 = 25$		$25 : 5$	
$5 \cdot 6 = 30$	$6 \cdot 5$	$30 : 5$	$30 : 6$
$5 \cdot 7 = 35$	$7 \cdot 5$	$35 : 5$	$35 : 7$
$5 \cdot 8 = 40$	$8 \cdot 5$	$40 : 5$	$40 : 8$
$5 \cdot 9 = 45$	$9 \cdot 5$	$45 : 5$	$45 : 9$

**730.** 10 ta kvadrat va 2 ta doira chizing. Kvadratlar doiralardan necha marta ko'p? Doiralalar kvadratlardan necha marta kam?

**731.**  $(18 + 6) : 4$       4 dm 7 sm =  sm  
 $(63 - 35) : 7$       8 m 4 dm =  dm

**732.**  $40 : 5 \cdot 4$        $40 : 10 + 18 : 6$        $3 \cdot (6 + 4)$   
 $30 : 5 \cdot 3$        $50 : 5 - 14 : 7$        $4 \cdot (11 - 3)$

**733.** Tomoni 4 sm bo'lgan kvadrat chizing. Unda shunday bir kesma o'tkazingki, ikkita to'g'ri to'rtburchak hosil bo'lsin.



**734.** Hovlida 4 ta o'rdak va 8 ta tovuq yuribdi. Tovuqlar o'rdaklardan necha marta ko'p? O'rdaklar tovuqlardan necha marta kam?

- 735.** O'tloqda 6 ta ninachi va 2 ta kapalak uchib yuribdi. Ninachilar kapalaklardan necha marta ortiq? Kapalaklar ninachilardan necha marta kam?



**Yodingizda tuting!**

Bir son ikkinchi sonidan necha marta kam ekanini bilish uchun katta sonni kichik songa bo'lish kerak.

- 736.** Har qaysi qatorda ko'k shakllar qizil shakllardan necha marta ortiq?



**737.**

Son	18	15	28	27
Topish kerak	yarmi	uchdan biri	choragi	uchdan biri

**738.**

$$8 \cdot (12 - 9) = 24 \qquad 8 \cdot 5 - 34 \qquad 3 \cdot 9 - 27 : 3$$


$$(17 - 9) \cdot 4 = 32 \qquad 9 \cdot 5 - 42 \qquad 35 : 7 + 30 : 5$$

- 739.**  $14 - a$  ifodani o'qing. Agar  $a = 9$ ,  $a = 6$ ,  $a = 14$ ,  $a = 0$  bo'lsa, uning qiymatini toping.



## Shakllarning yuzi

740. 1)



2)




1-rasmda doira to'rtburchak ichiga to'la joylashgan; 2-rasmda to'g'ri to'rtburchak oltiburchak ichiga to'la joylashgan. Bu doiraning yuzi to'rtburchak yuzidan kichik, to'g'ri to'rtburchakning yuzi esa oltiburchakning yuzidan kichik ekanini bildiradi. Yuz –bu o'lchash mumkin bo'lgan kattalik.


Topshiriq: bu shakllarning yuzlarini ko'z bilan chamalab taqqoslang:



741. 1) 1- va 2- shakllarning yuzini:  
a) chamalab; b) ustma-ust qo'yib taqqoslash mumkinmi?



742. Har bir shakldagi teng kvadratlarni sanab, shakllarning yuzini taqqoslang. Ularning tartib raqamini yuzlarning ortib borishi tartibida yozib chiqing:



**743.** Kiyim do'konida bir kunda 24 ta ko'ylak, undan 6 ta ortiq plash, plashdan 5 marta kam kastum sotildi. Nechta kastum sotilgan?

**744.** Ko'channing kengligi 20 m, mashinalar yuradigan yo'lning kengligi 12 m. Piyodalar yuradigan har qaysi yo'lkaning kengligi qanday?

**745.**  $5 \cdot 9$        $8 \cdot 5$        $6 \cdot 4 : 3$        $4 \cdot 3 + 22$   
 $4 \cdot 7$        $7 \cdot 5$        $21 : 7 \cdot 5$        $5 \cdot 4 + 61$




### Mustahkamlash uchun mashqlar

1.  $7 \cdot 5$      $30 : 6 \cdot 8$      $24 : 4 + 9 \cdot 3$      $5 \cdot (3 + 6)$   
 $5 \cdot 6$      $40 : 8 \cdot 5$      $3 \cdot 7 - 14 : 7$      $(50 - 5) : 9$   
 $9 \cdot 4$      $35 : 5 \cdot 4$      $8 \cdot 4 - 32 : 8$      $7 \cdot (12 - 8)$

2.  $8 \cdot (12 - 7)$      $35 : 7$      $9 \cdot 5 - 30$      $4 \cdot 7 - 24 : 8$   
 $(13 - 8) \cdot 5$      $36 : 9$      $5 \cdot 8 - 24$      $2 \cdot 8 + 30 : 6$   
 $5 \cdot (15 - 9)$      $40 : 5$      $4 \cdot 9 + 12$      $5 \cdot 6 - 36 : 4$

3.  $14 - b$  ifodani o'qing. Agar  $b = 5$ ,  $b = 7$ ,  $b = 14$ ,  $b = 0$  bo'lsa, uning qiymatini toping.

4.  $8 \dots 2 = 16$      $9 \dots 3 = 27$      $4 \dots 4 = 1$   
  $8 \dots 2 = 4$      $9 \dots 3 = 3$      $4 \dots 4 = 0$   
 $8 \dots 2 = 10$      $9 \dots 3 = 12$      $4 \dots 4 = 8$   
 $8 \dots 2 = 6$      $9 \dots 3 = 6$      $4 \dots 4 = 16$

5. Rasmdan foydalanib, quyidagicha yechiladigan masalalar tuzing va jadvalga yozing:

1)  $6 \cdot 3$

2)  $18 : 3$

3)  $18 : 6$



massasi  
6 kg

Qovunlar massasi	Qovunlar soni	Hamma qovunning massasi

6. Har biri 5 kg dan 3 ta tarvuz sotib olishdi. Olingan hamma tarvuzning massasi qancha?



Tarvuzning massasi	Tarvuzlar soni	Hamma tarvuz massasi
5 kg	3 ta	?
5 kg	?	15 kg
?	3 ta	15 kg

Ikkita teskari masala tuzing va yeching.

7. Bo'lishga doir misollar tuzing, ularda bo'luvchi 3 ga, bo'linma 4 ga teng bo'lsin.
8. Qodir 32 kg, Botir 29 kg paxta terdi. Nodira esa ikkala bola birga qancha paxta tergan bo'lsa, o'shandan 19 kg kam paxta terdi. Nodira Qodirdan qancha ortiq paxta tergan?

Yechilishi:

1)  $32 + 29 = 61$  (kg)

2)  $61 - 19 = 42$  (kg)

3)  $42 - 32 = 10$  (kg)



Har bir amal bilan nimani bilganingizni tushuntiring.

9. Duradgorda ikkita taxta bor: birining uzunligi 6 dm, ikkinchisi undan 3 marta uzun. Ikkinchi taxtaning uzunligi qancha? Masalaga doir chizma chizish mumkin:



10. Chapdagi rasmda tasvirlangan kvadratlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? O'ngdagilari-chi?



11. Kuni uzaytirilgan guruhdan oshxonaga ovqatlanish uchun 28 o'quvchi keldi. Ulardan 8 tasi katta stol atrofida, qolganlari 4 tadan bo'lib kichik stollar atrofida o'tirishdi. O'quvchilar nechta kichik stol atrofida o'tirishgan?


28 – 8,  $(28 - 8) : 4$  ifodalar nimani bildirishini tushuntiring.

12. Masalaga mos rasm chizing va uni yeching: daf-tarda 12 ta katakni o'rang. O'ragan kataklaringizning to'rttdan bir qismini bo'yang. Nechta katakni bo'yadingiz?



## Oltini ko'paytirish va 6 ga bo'lish

746.



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$6 \cdot 6 = 36$

$36 : 6$

$6 \cdot 7 = 42$

$7 \cdot 6$

$42 : 6$

$42 : 7$

747.

$42 : 6 \cdot 2$

$35 : 7 \cdot 8$

$(80 - 35) : 9$

$36 : 6 \cdot 5$

$30 : 6 \cdot 9$

$(24 + 16) : 8$

748.

Issiqxonada bir jo'yakdan 26 ta, ikkinchi jo'yakdan esa 19 ta pomidor uzishdi. Hamma pomidorlarni 9 ta qog'oz xaltaga baravardan solishdi. Har bir xaltaga nechtadan pomidor solishgan?

749.

Rasmga qarab bunday yechiladigan masalalar tuzing:



$3 + 5$

$4 + 3$

$\square + \square$

$5 - 3$

$\square - \square$

**750.**

Ota donasi 9 so'mlik konfetdan 3 ta sotib oldi, yonida yana 45 so'm qoldi. Otaning qancha puli bo'lgan?

**751.** Agar  $c=8$ ,  $c=3$ ,  $c=9$  bo'lsa,  $5 \cdot c$  ifodaning qiymatini hisoblang.

**752.**

Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$6 \cdot 8 = 48$	$8 \cdot 6$	$48 : 6$	$48 : 8$
$6 \cdot 9 = 54$	$9 \cdot 6$	$54 : 6$	$54 : 9$

**753.**


$50 - 6 \cdot 8$	$54 : 6 : 3$	$100 - 57 + 24$
$71 - 48 : 6$	$42 : 7 \cdot 4$	$40 + 48 - 75$

**754.** To'g'ri to'rtburchaklar yuzlarini ko'z bilan chamalang. Qaysi shaklning yuzi eng kichik (katta)?




Kattalik (miqdor)larni o'lchash uchun o'lchov birliklari tanlab olinadi. Uncha katta bo'lmagan yuzlar kvadrat santimetr bilan o'lchanadi. Kvadrat santimetr tomonlari 1 sm dan bo'lgan kvadratning yuzi. „Kvadrat santimetr“ so'zi sonlar

- yoniga qisqacha bunday yoziladi: 1 kv. sm,  
• 6 kv. sm.



755. Har qaysi shaklda nechta kvadrat santi-  
metr borligini sanang va yozib qo'ying:



756.

- 1) Tarvuzning massasi 4 kg, oshqovoq undan  
3 marta og'ir. Oshqovoq necha kilogramm kela-  
di?  
2) Tarvuzning massasi 4 kg, oshqovoq undan  
3 kg og'ir. Oshqovoq necha kilogramm keladi?


757.

$$6 \cdot 6 \quad 5 \cdot 7 \quad 4 \cdot 8 \quad 3 \cdot 8 \quad 27 + 58$$

$$6 \cdot 8 \quad 5 \cdot 9 \quad 4 \cdot 9 \quad 3 \cdot 9 \quad 93 - 84$$



758.



3 ta o'yinchoq uchun 30 so'm to'lashdi. Bitta  
o'yinchoq qancha turadi? 4 ta o'yinchoq-chi?

759. 6 ta bir xil konfet 36 so'm turadi. 4 ta shunday konfet qancha turadi?

Bahosi (so'mlarda)	Miqdori (dona)	Narxi (so'mlarda)
Bir xil	6 ta 4 ta	36 so'm ?

760. Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$6 \cdot 6 = 36$		$36 : 6$	
$6 \cdot 7 = 42$	$7 \cdot 6$	$42 : 6$	$42 : 7$
$6 \cdot 8 = 48$	$8 \cdot 6$	$48 : 6$	$48 : 8$
$6 \cdot 9 = 54$	$9 \cdot 6$	$54 : 6$	$54 : 9$

761. 1) Har bir shaklning yuzini kvadrat santimetr modellari yordamida toping:



### Yodingizda tuting!

Shaklning yuzini topish deganda shu shaklni ajratish mumkin bo'lgan kvadrat santimetrlar sonini topish tushuniladi.

2) Kvadrat santimetrlar modellari yordamida har xil shakllar tuzing va har birining yuzini hisoblang.

762. Do'konga har birida 10 kg dan 9 yashik bodring keltirildi. Tushgacha 64 kg bodring sotildi. Necha kilogramm bodring qoldi?

763.  $5 \cdot 8 - 32 : 8$

$8 \cdot 2 + 3 \cdot 7$



$6 \cdot 4 + 3 \cdot 9$


$42 : 6 + 18 : 6$

764. 1) 15 soni 5 dan necha marta katta?  
 2) 48 soni 9 dan nechta ortiq?  
 3) 5 soni 45 dan necha marta kichik?  
 4) 16 soni 50 dan nechta kam?

765. 1) Avtobusda 45 yo'lovchi ketayotgan edi. Bekatda 13 yo'lovchi tushdi, 8 yo'lovchi chiqdi. Avtobusdagi yo'lovchilar qancha bo'ldi?  
 2) Shkafda 6 ta chuqur taqsimcha, undan 3 marta ko'p mayda taqsimcha, mayda taqsimchalardan 2 marta kam meva taqsimchalar bor. Shkafda nechta meva taqsimcha bor?

766. 1) 6 sm uzunlikdagi kesma bir necha marta uzaytirilganda 18 sm uzunlikdagi kesma hosil bo'ldi. Kesma necha marta uzaytirilgan?  
 2) 20 sm uzunlikdagi tasma bir necha marta qisqartirildi va 5 sm uzunlikdagi tasma hosil qilindi. Tasma necha marta qisqartirilgan?

767. Yuzlari teng bo'lgan shakllarning tartib raqamlarini yozib qo'ying:



768.

Daftar bilan albom 82 so'm turadi. Albom 53 so'm turadi. Albom daftardan qancha qimmat? Daftar kitobdan qancha arzon?

769.  $35 : 7 + 36 : 9$

$64 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$


$6 \cdot 8 + 5 \cdot 9$

$59 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$



### Yettini ko'paytirish va 7 ga bo'lish

770.



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$7 \cdot 7 = 49$

$49 : 7$

$7 \cdot 8 = 56$

$8 \cdot 7$

$56 : 7$

$56 : 8$

$7 \cdot 9 = 63$

$9 \cdot 7$

$63 : 7$

$63 : 9$

771.  $21 : 7 \cdot 9$

$35 : 7 \cdot 10$

$7 \cdot 9 - 20$

$7 \cdot 9$

$28 : 7 \cdot 8$

$42 : 7 \cdot 1$

$7 \cdot 8 - 34$

$7 \cdot 0$

772. Rasm va jadval bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching:



Paket massasi	Paketlar soni	Hamma paketlar massasi
Bir xil	3 ta 5 ta	9 kg ?

773.  $b - 37 = 42$

$x : 8 = 7$

$63 - x = 9$

$90 + x = 96$



774. Ikkita uchburchakdan bir nechta ko'pburchak tuzing; ikkita to'rtburchakdan bir nechta ko'pburchak tuzing.

775.



$35 : 5 \dots 35 : 7$

$70 : 10 \dots 70 : 70$

$49 : 7 \dots 42 : 6$

$30 : 3 \dots 20 : 2$

776. Diametri 6 sm bo'lgan doira chizish kerak. Bu doiraning radiusi nimaga teng?

777. Doiraning radiusi 4 sm ga teng. Shu doiraning diametri nimaga teng?

778. 6 dona konfetga 42 so'm, bitta shokoladga 40 so'm to'landi. Bitta shokolad bitta konfetdan qancha qimmat turadi?

779.  $a - 19$ . Agar  $a = 19, 22, 35, 48, 91, 100$  bo'lsa, bu ifodaning qiymatini hisoblang.

780.

24 metr arqondan uchdan bir qismini qirqib

780.

24 metr arqondan uchdan bir qismini qirqib

781.

$30 - 63 : 7 \quad 59 - (72 - 14) \quad 47 + 42 : 7$

$28 : 7 + 16 \quad 63 - (25 + 18) \quad 7 \cdot 8 - 52$



### Mustahkamlash uchun mashqlar

1.  $6 \cdot 6$        $8 \cdot \square = 48$        $(60 - 36) : 4$        $54 : \square = 6$   
 $4 \cdot 9$        $5 \cdot \square = 40$        $48 : (15 - 9)$        $42 : \square = 7$   
 $7 \cdot 6$        $\square \cdot 4 = 32$        $30 : (38 - 32)$        $32 : \square = 8$

2.  $8 \cdot 7$        $56 : 7$        $28 : 4$        $(61 - 7) : 6$        $63 - 48$   
 $7 \cdot 7$        $63 : 7$        $42 : 6$        $24 : (13 - 7)$        $38 + 53$   
 $7 \cdot 9$        $49 : 7$        $40 : 8$        $(30 + 18) : 8$        $85 - 22$

3.  $7 \cdot 6$        $42 : 7$        $73 - 30 : 5$        $5 \cdot 7$        $(50 - 8) : 7$   
 $7 \cdot 5$        $35 : 7$        $28 + 18 : 9$        $4 \cdot 6$        $5 \cdot (32 : 4)$   
 $6 \cdot 6$        $36 : 6$        $30 : 6 + 46$        $3 \cdot 9$        $(20 + 16) : 6$





$$\begin{array}{lll}
 4. \quad \square : 7 = 9 & 7 \cdot 5 - 20 & 28 : (11 - 70) \\
 \square : 8 = 74 & 5 + 35 : 7 & (5 + 7) : 4 \\
 6 \cdot \square = 54 & 100 - 7 \cdot 7 & (28 + 28) : 8
 \end{array}$$

5. 32, 56, 28, 7, 8, 16, 4 sonlaridan foydalanib, ko'paytirish va bo'lishga doir misollar tuzing.
6. Agar  $d=56$ ,  $d=49$ ,  $d=63$  bo'lsa,  $d:7$  ning qiymatini toping.
7. Agar  $c=8$ ,  $c=3$ ,  $c=9$  bo'lsa,  $5 \cdot c$  ifodaning qiymatini hisoblang.
8. Bo'linuvchini 24, 32, 36 sonlari orasidan, bo'luvchini 4, 6, 8, 9 sonlari orasidan tanlang. Har xil bo'linmalar tuzing.
9. Birinchi son 32, ikkinchi son undan 4 marta kam. Shu sonlarning yig'indisi, ayirmasi nimaga teng?

10.

$c$	3	8	5	7
$c \cdot 6$				

$d$	32	20	28	8
$d : 4$				

11. O'ylangan sonni  $x$  harfi bilan belgilang, tenglama tuzing va uni yeching:
- O'ylangan sonni 24 ta kamaytirib, 30 hosil qiling. Qanday son o'ylangan?
  - O'ylangan songa 60 ni qo'shishgan edi, 97 hosil bo'ldi. Qanday son o'ylangan?
12. Uzunligi 10 sm bo'lgan kesma chizing. Shu kesmaning beshdan bir qismida necha santimetr borligini biling.
13. Arqonning uzunligi 18 m. Shu arqondan uzunligi 3 m bo'lgan bir bo'lakni qirqib olishdi. Qirqib olin-

gan bo'lak butun arqonning qanday qismini tashkil qiladi? Buni qanday bilish mumkin?

14. Chizma chizing va masalani yeching. O'quvchilar darsdan keyin paxta terishda ota-onalariga yordam berishdi. Farida 7 kg, Zokir undan 2 marta ko'p paxta terdi. Zokir qancha paxta tergan?

15. Kutubxonaga kitoblar keltirishdi: 14 tasi hikoyalar to'plami, ulardan 2 marta kam she'rlar to'plami, she'rlardan 3 marta ortiq ertaklar to'plami. Qancha ertaklar to'plami keltirilgan?


16. 12 ta qiz bola, qizlardan 8 ta ko'p o'g'il bola sayohatga chiqishdi. Hammasi bo'lib qancha bola sayohatga chiqqan?

17. Masalalarni va ularning yechilishini taqqoslang:

1) Ustaxonada 20 ta parta, undan 3 marta kam stolni tuzatishdi. Hammasi bo'lib nechta parta va stol tuzatilgan?

1) Ustaxonada 20 ta parta, undan 3 ta kam stolni tuzatishdi. Hammasi bo'lib nechta parta va stol tuzatilgan?

18.  $KD$  to'g'ri chiziq  $ABC$  uchburchakning qaysi tomonlarini kesib o'tgan?




19. Kitob bilan daftari 70 so'm turadi. Kitob daftardan 16 so'm qimmat. Kitobning qancha turishini toping.

20. Bir bolaning 20 ta yong'og'i bor. U nechta yong'og'ini ukasiga bersa, unda ukasidagi yong'oqlardan 8 ta ortiq yong'oq qoladi?

21. Bir bola o'z kutubxonasi uchun 10 ta kitob sotib oldi. Opasi bolaga 7 ta, o'rtog'i bir nechta kitob sovg'a qildi. Bolaning hamma kitoblari 22 ta bo'ldi. Bolaga o'rtog'i nechta kitob bergan?

### Sakkizni ko'paytirish va 8 ga bo'lish



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$$8 \cdot 8 = 64$$

$$64 : 8$$

$$8 \cdot 9 = 72$$



$$9 \cdot 8$$

$$72 : 8$$

$$72 : 9$$

783.  $8 \cdot 3 + 8 \cdot 7$        $8 \cdot 6 - 7 \cdot 5$        $8 \cdot 9 - 7 \cdot 8$   
 $8 \cdot 4 + 8 \cdot 5$        $8 \cdot 8 - 7 \cdot 6$        $8 \cdot 10 - 8 \cdot 0$

784. 1) Har bir shakldagi kvadrat santimetrlarni sanang. Har bir shaklning yuzi nimaga teng?



2) Har bir shaklning perimetrini toping.

785. Maktab bog'ida ishlash uchun 19 ta o'g'il bola va 8 ta qiz bola keldi. Ular 9 kishidan bo'lib guruhlariga bo'linishdi. Nechta guruhga bo'linishgan?

**786.** 12 kg asalni 4 ta bir xil bankaga quyishdi. 3 ta bankada necha kilogramm asal bor?



Banka sig'imi	Bankalar soni	Hamma bankalarning sig'imi
Bir xil	4 ta 3 ta	12 kg ?

**787.**

6 dona rangli qog'oz 48 so'm turadi. Shunday 7 dona qog'oz necha so'm turadi?

$$6 \text{ d} - 48 \text{ so'm}$$

$$7 \text{ d} - ?$$

Masalaning qisqa yozuvini qarang va uni keltirilgan reja asosida yeching.

Yechish rejasi


1) 1 dona qog'ozning narxi qancha?

2) 7 dona qog'oz qancha turadi?

**788.**  $55 - 72 : 8$        $7 \cdot 7 + 6 \cdot 4$        $40 : 40 + 60 : 1$

$74 - 8 \cdot 8$        $9 \cdot 8 - 7 \cdot 5$        $80 : 10 + 80 : 8$

**789.** Birinchi tasmaning to'rtidan bir qismini, ikkinchi tasmaning beshdan bir qismini toping:



To'rtidan bir qismi



Beshdan bir qismi

**790.** Ustaxonada 24 m uzunlikdagi bir to'p gazlamadan 8 ta bir xil kastum tikildi. 10 ta shunday kastumga necha metr gazlama kerak bo'ladi?

791. 1) 4 ta piyola 36 so'm, bitta choynak bitta piyoladan 41 so'm qimmat turadi. Bitta choynak qancha turadi?



36 so'm



?, 41 so'm qimmat

- 2) 6 ta shunday piyola necha so'm turadi? 2 ta choynak-chi?

792.  $(90 - 18) : 8$        $(100 - 19) : 9$        $(68 - 49) : 1$   
 $(97 - 34) : 7$        $(100 - 40) : 10$        $(28 + 56) : 84$

793. Masala tuzing va uni yeching:



18 so'm  
Do'ppi qancha turadi?




16 so'm

794.  $42 : 6$        $49 : 7$        $32 : 8$        $56 : 7$        $64 : 8$   
 $40 : 5$        $36 : 4$        $35 : 7$        $54 : 6$        $72 : 9$

### To'qqizni ko'paytirish va 9 ga bo'lish

795.



Jadvalning har bir ustunini o'qing. Har bir misolning javobini og'zaki ayting:

$$9 \cdot 9 = 81 \quad 81 : 9 = 9$$

796.  $64 : 8$        $8 \cdot 9$        $(30 + 34) : 8$        $67 - 42 : 6$   
 $54 : 6$        $7 \cdot 9$        $42 : (15 - 8)$        $30 : 6 \cdot 8$

797. Tenglamalarni yeching:

$x + 32 = 62$

$b \cdot 7 = 21$

$x : 3 = 8$

$75 - x = 38$

$x - 22 = 35$

$45 : x = 5$

798. Bir ayol 24 ta somsa pishirdi. Nonushtada 8 ta somsa yeyildi. Nonushtadan qolganidan necha marta kam somsa yeyilgan?



799. Tasmalarning uzunliklarini o'lchang. Qizil tasma yashil tasmadan necha marta qisqaligini aniqlang:



800.   $8 \dots 7 = 15$        $49 \dots 7 = 7$        $9 \dots 8 = 72$   
 $8 \dots 7 = 56$        $49 \dots 7 = 42$        $9 \dots 8 = 1$

801.



Har bir shaklning yuzini toping:



802.  $90 - 6 \cdot 6$        $57 + 54 : 8$        $49 : 7 \cdot 6$   
 $90 - 5 \cdot 5$        $49 + 56 : 7$        $54 : 9 \cdot 8$



803. 1) Har bir shakldagi kvadrat santimetrlarni sanang. Har bir shaklning yuzi nimaga teng?




2) Har bir shaklning perimetrini toping.

804.  $63 : 7 + 8 \cdot 3$   
 $81 : 9 + 6 \cdot 8$   
 $72 : 8 + 64 : 8$

$27 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$   
 $69 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$   
 $81 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$

805.



3 ta teshikkulcha 15 so'm turadi. 35 so'mga nechta teshikkulcha sotib olish mumkin?

806. Qodir bilan Po'lat rasmda nechta katak borligini sanashlari kerak edi. Rasmni qarang va ularning har biri qanday mulohaza yuritganini tushuntiring:



Qodir:  $3 \cdot 8 = 24$ . Po'lat:  $8 \cdot 3 = 24$ .

807.

Tenglamalarni yeching:

$79 - x = 40$        $20 : x = 5$        $x \cdot 4 = 12$   
 $x + 22 = 33$        $x - 56 = 14$        $60 - x = 35$

808. Bu shakllarning nomini yozing:



809. 1) Birinchi rasmga qarang. Uzunligi 3 sm, eni 2 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak kvadrat santimetrlarga bo'lingan. Har biri 3 kv sm bo'lgan


2 ta qator yoki har biri 2 kv sm bo'lgan 3 ta ustun hosil bo'lgan. To'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblash uchun 3 va 2 sonlarining ko'paytmasini topish kerak.



$$3 \cdot 2 = 6 \text{ yoki}$$

$$2 \cdot 3 = 6$$


Javob: 6 kv sm.



To'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblash uchun uning bo'yini va enini bir xil birliklarda o'lchab, hosil bo'lgan sonlar o'zaro ko'paytiriladi.

2) Keyingi rasmga qarang va to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang.

**810.** Har bir to'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang:



**811.** 1) Xo'roz, quyon va kurkaning umumiy massasi 12 kg. Xo'rozning massasi 3 kg, quyonning massasi esa 4 kg. Kurkaning massasi qancha?



3 kg



4 kg



?



2) Quyidagi ifodalar nimani bildirishini rasmdan foydalanib tushuntiring:

$3 + 4$

$4 \cdot 2$

$4 \cdot 5 + 3$

$4 - 3$

- 812.** 12 kg murabbo 6 ta bankaga teng bo'lib solindi. 18 kg murabboni solish uchun nechta shunday banka kerak?

**813.**

$6 \cdot 6$

$56 : 8 \cdot 4$

$8 \cdot 5 - 7 \cdot 3$

$83 - 67$

$8 \cdot 6$

$45 : 9 \cdot 6$

$9 \cdot 4 - 9 \cdot 3$

$80 - 18$

- 814.** Tenglamalarni og'zaki yeching. Javobini yozing:



$x + 7 = 20$

$x \cdot 3 = 18$

$32 : x = 8$

- 815.** Rasmga qarang va masalani yeching:



– 9 m



...

...

?, – 21 m

Kichik korxonada xodimlari uchun 3 ta xalat tikildi, bunga 9 m gazlama ketdi. 21 m gazlamadan nechta shunday xalat tikish mumkin?

- 816.** Stolda hammasi bo'lib 28 ta atirgul va moychechak bor edi. 3 ta atirgulni alohida guldonga qo'yishdi. Qolganlari moychechak bo'lib, ularni 5 tadan qilib bog'lashdi. Nechta guldasta hosil bo'ldi?




... ..




**817.** O'quvchi 10 so'mdan 3 ta qalam va 40 so'mga kitob sotib oldi. O'quvchi sotib olgan hamma narsalariga qancha pul to'lagan?


**818.** Har bir misolning javobini toping va ularni yod oling:

$2 \cdot 2$									
$3 \cdot 2$	$3 \cdot 3$								
$4 \cdot 2$	$4 \cdot 3$	$4 \cdot 4$							
$5 \cdot 2$	$5 \cdot 3$	$5 \cdot 4$	$5 \cdot 5$						
$6 \cdot 2$	$6 \cdot 3$	$6 \cdot 4$	$6 \cdot 5$	$6 \cdot 6$					
$7 \cdot 2$	$7 \cdot 3$	$7 \cdot 4$	$7 \cdot 5$	$7 \cdot 6$	$7 \cdot 7$				
$8 \cdot 2$	$8 \cdot 3$	$8 \cdot 4$	$8 \cdot 5$	$8 \cdot 6$	$8 \cdot 7$	$8 \cdot 8$			
$9 \cdot 2$	$9 \cdot 3$	$9 \cdot 4$	$9 \cdot 5$	$9 \cdot 6$	$9 \cdot 7$	$9 \cdot 8$	$9 \cdot 9$		

**819.**  8 ta doiracha chizing. Ularning to'rtidan birini bo'yang. Siz nechta doirachani bo'yadingiz? Bo'yalmagan nechta doiracha qoldi?

**820.**  Bitta burchagi to'g'ri burchak bo'lgan, ikkita burchagi to'g'ri burchak bo'lgan to'rtburchaklar chizing.

**821.** Har qaysi to'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzini toping:



**822.** Bolalar bog'chasiga 100 so'mlik o'yinchoq sotib olishdi. Bitta o'yinchoq mashina 28 so'm turadi.


Qolgan pulga har biri 9 so'm turadigan qo'g'ir-choqlardan bir nechta olishdi. Nechta o'yinchoq olishgan?

**823.** Qandil 72 so'm turadi, stol lampasi undan 8 marta arzon. 5 ta stol lampasiga qancha to'lash kerak?

**824.** Uch juft paypoq 27 so'm turadi. 81 so'mga shunday paypoqlardan necha juft sotib olish mumkin?



**825.** Tikuvchilik ustaxonasi ko'ylak tikish uchun 90 m shoyi va jun gazlama oldi. Shoyi 54 m. Ustaxona necha metr jun gazlama olgan? Teskari masala tuzing va uni yeching.

**826.**   $1 \dots 4 = 5$        $7 \dots 1 = 7$        $8 \dots 8 = 0$   
 $1 \dots 4 = 4$        $7 \dots 0 = 7$        $8 \dots 8 = 1$

**827.** 4 ta konvert 24 so'm turadi. 7 ta shunday konvertga qancha to'lash kerak?

**828.** 12 kalava tivit ipdan 3 ta bir xil bolalar nimchasi chiqadi. Shunday 5 ta nimchaga necha kalava tivit ip kerak?


**829.** 1) 27 l sharbat 9 ta ballonga teng qilib quyildi. 18 l sharbatni quyish uchun shunday ballondan nechta kerak?

2)  $12 : (15 : 5)$  ifoda bo'yicha shunga o'xshash masala tuzing.

**830.** Ikkita bir xil qalam 8 so'm turadi. 32 so'mga nechta shunday qalam olish mumkin?

831.

Chizma bo'yicha masala tuzing. Masalani yeching:



832. Tenglamalarni yeching:

$6 \cdot x = 30$

$x : 4 = 8$

$36 : x = 9$

**Mustahkamlash uchun mashqlar**

1.  $56 : \square = 7$       $9 \cdot 8$       $63 : 7$       $18 : 6 + 9 \cdot 4$

$54 : \square = 6$       $5 \cdot 9$       $40 : 5$       $7 \cdot 9 - 21 : 3$

2.  $63 : 9$       $7 \cdot 6$       $9 \cdot 3 - 20 : 4$       $56 : (16 - 90)$

$72 : 8$       $9 \cdot 5$       $40 : 5 + 8 \cdot 4$       $(40 - 24) : 8$

3.  $9 \cdot 8$       $24 : 3 : 2$       $17 - 63 : 7$       $2 \cdot 7 + 2 \cdot 9$

$7 \cdot 6$       $4 \cdot 9 : 6$       $42 : 6 + 36$       $6 \cdot 4 + 6 \cdot 5$

4.  $35 : 7 \cdot 9$       $17 - 63 : 7$       $5 \cdot 3 + 5 \cdot 6$       $54 : 6$

$6 \cdot 6 : 4$       $81 : 9 + 35$       $2 \cdot 7 + 2 \cdot 3$       $56 : 8$

5.  $6 \cdot 7 - 30$       $40 - 14 : 2 + 15$       $8 \cdot (45 - 40)$

$84 + 54 : 9$       $59 - 21 : 3 + 18$       $(40 + 32) : 9$

6.   $9 \cdot 6 \dots 6 \cdot 9$       $42 : 6 \dots 42 - 6$

  $65 - 17 \dots 65 - 20$       $43 + 25 \dots 43 + 30$

7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini toping (hisoblang):

16 va 12 sonlari yig'indisini 4 marta kamaytiring;

80 va 71 sonlari ayirmasini 8 marta orttiring;

7 va 9 sonlari ko'paytmasini 40 ta kamaytiring;

40 va 8 sonlari bo'linmasini 7 marta orttiring.



16. Har bir to'g'ri to'rtburchakda nechta katak bor?  
To'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlarini toping.



17. Bozordan 4 kg olxo'ri, 3 kg shaftoli, shaftolidan 2 kg ortiq o'rik olib kelishdi. Bozordan nechta kilogramm o'rik olib kelishgan?
18. 7 soniga ikkita sonni qo'shishdan 15 hosil bo'ldi. Bular qanday sonlar? Mumkin bo'lgan misollarni yozing.
19. Qavslarni shunday qo'yingki, to'g'ri tenglik hosil bo'lsin:

$$7 \cdot 5 - 3 = 14$$

$$47 - 16 - 10 = 21$$


$$16 : 2 \cdot 4 = 2$$


$$6 - 2 \cdot 6 = 12$$

$$40 - 15 : 5 = 5$$

$$16 : 4 \cdot 2 = 8$$


20. Berilgan to'rtburchaklar orasidan tomonlari 2 sm va 4 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni toping va uni daftaringizga chizing:





### O'QUV YILI BO'YICHA O'TILGANLARNI TAKRORLASH

1.  $27 + 35 - 48$        $80 - 73 + 84$        $78 + 12 - 8$   
 $65 - 47 + 34$        $26 + 62 - 50$        $31 - 19 + 6$   
 $86 + 14 - 75$        $30 - 8 + 62$        $27 + 15 - 9$
2. 1)  $7 \cdot 1$        $56 : 56$        $24 : 1$        $(28 - 27) \cdot 15$   
 $1 \cdot 8$        $1 \cdot 42$        $0 : 24$        $16 : (48 - 47)$
- 2)  $20 : 10 \cdot 3$        $5 \cdot 10 - 26$        $80 : 10 + 49$   
 $40 : 4 \cdot 6$        $10 \cdot 7 - 38$        $(82 - 74) \cdot 10$   
 $100 : 10 \cdot 7$        $10 \cdot 8 - 25$        $(56 + 34) : 10$
3.  $5 \cdot 5 - 17$        $27 : 9 \cdot 5$        $(58 - 48) \cdot 9$   
 $5 \cdot 7 + 18$        $45 : 5 \cdot 4$        $(75 - 39) : 9$   
 $5 \cdot 9 - 26$        $32 : 8 \cdot 9$        $(81 - 78) \cdot 8$
4.  $38 + 7 - 16 : 2$        $80 - 7 \cdot 5 + 9$        $35 : 35$   
 $90 - 25 - 7 \cdot 3$        $64 - 30 : 5 + 8$        $35 \cdot 1$   
 $41 + 9 - 9 \cdot 5$        $93 - 45 : 9 + 7$        $5 : 5$
5.  $72 - 6 \cdot 9$        $60 - 7 \cdot 7 + 39$        $91 \cdot (78 - 77)$   
 $54 : 6 + 78$        $70 - 8 \cdot 8 + 49$        $12 : (31 - 19)$   
 $48 : 6 + 16$        $32 : 8 \cdot 9 + 18$        $42 : (66 - 59)$   
 $67 - 7 \cdot 7$        $40 : 8 \cdot 7 - 19$        $81 : (56 - 47)$

6.   $94 - 30 \dots 90 - 40$        $1 \text{ dm } 6 \text{ sm} \dots 15 \text{ s}$   
 $84 + 12 \dots 86 + 12$        $19 \text{ sm} \dots 1 \text{ dm } 9 \text{ sm}$   
 $76 - 26 \dots 69 - 26$        $2 \text{ dm} \dots 1 \text{ dm } 8 \text{ sm}$

7. Amallarni bajaring. Ifodalar bir-biriga qanday bog'langanligini tushuntiring. Bundan ifodalar qiymatini topishda foydalaning:

$\frac{4 \cdot 3 = 12}{12 : 4 = 3}$	$\frac{8 \cdot 2 = 16}{16 : 8 = \square}$	$\frac{7 \cdot 4 = 28}{28 : 7 = \square}$
$12 : 3 = 4$	$16 : 2 = \square$	$28 : 4 = \square$

8. Shunday sonlar qo'yingki, tengliklar va tengsizliklar to'g'ri bo'lsin:

1) $8 \text{ sm } 4 \text{ mm} = \square \text{ mm}$	$81 \text{ dm} = \square \text{ m } \square \text{ dm}$
$2 \text{ dm } 6 \text{ sm} = \square \text{ sm}$	$19 \text{ mm} = \square \text{ sm } \square \text{ mm}$
$5 \text{ m } 8 \text{ dm} = \square \text{ dm}$	$29 \text{ sm} = \square \text{ dm } \square \text{ sm}$
2) $3 \text{ m } 8 \text{ dm} < \square \text{ dm}$	$1 \text{ dm } 3 \text{ sm} < \square \text{ sm}$
$6 \text{ dm } 3 \text{ sm} > \square \text{ sm}$	$5 \text{ sm } 4 \text{ mm} > \square \text{ mm}$
$4 \text{ sm } 2 \text{ mm} < \square \text{ mm}$	$9 \text{ m } 8 \text{ dm} > \square \text{ dm}$

9.  $7 \cdot x = 35$        $k - 17 = 17$        $50 - k = 4$   
 $8 : a = 4$        $b + 14 = 40$        $b : 4 = 9$   
 $b \cdot 3 = 27$        $c \cdot 10 = 30$        $35 + k = 35$

10. Ifodalarni yozing va ularning qiymatlarini hisoblang:

- 1) 80 bilan 8 ning bo'linmasini 5 marta orttirish.
- 2) 9 bilan 3 ning ko'paytmasini 8 ta orttirish.
- 3) 45 bilan 5 ning bo'linmasini 9 ta kamaytirish.


11. 1) Shisha ballonda 9 stakan, bidonda esa 4 stakan ko'p sut bor. Bidonda necha stakan sut bor?  
 2) Bidonda 13 stakan sut bor. 6 stakan sut ichildi. Necha stakan sut qoldi?





12. Fermada bir oyda 45 g'aram beda, ikkinchi oyda birinchiga qaraganda 9 g'aram ortiq beda ishlatildi. Shu ikki oyda necha g'aram beda ishlatilgan?
13. 1) Olma solingan yashik 27 kg, uzum solingan yashik undan 3 marta yengil. Uzumli yashik necha kilogramm keladi?  
2) Olma solingan yashik 27 kg, nok solingan yashik undan 3 kg yengil. Nokli yashik necha kilogramm keladi?
14. 1) Singlisi 8 yoshda, akasi singlisidan 3 yosh katta. Akasi necha...?  
2) O'g'li 5 yoshda, otasi o'g'lidan 5 marta katta. Otasi necha ...?  
3) Onasi 35 yoshda, qizi esa onasidan 7 marta yosh. Qizi ...?
15. 4 ta o'quvchining har biri 3 tadan bayroqcha yasadi. Ular hammasi bo'lib nechta bayroqcha yasashgan? Ikkita teskari masala tuzing va yeching.
16. Qodir 32 kg, Botir 29 kg makulatura yig'di. Nodira esa ikkala bola birga qancha makulatura yig'gan bo'lsa, o'shandan 19 kg kam makulatura yig'di. Nodira Qodirdan qancha ortiq makulatura yig'gan?
17. Savatda 60 dona sabzi bor edi. Tushki ovqatga 10 dona, kechki ovqatga 15 dona sabzi ishlatildi. Savatda necha dona sabzi qoldi? Masalani turli usullar bilan yeching.
18. Qisqa yozuviga ko'ra masala tuzing va uni yeching:
- Turgan edi — 91  
Ketdi — 18 va 25  
Qoldi — ?

19. 2, 7, 9 raqamlari yordamida 9 ta ikki xonali sonni yozish mumkin: 22, 27, 29, 77, 72, 79, 92, 97, 99.  
5, 1, 4 raqamlari yordamida hosil qilish mumkin bo'lgan barcha ikki xonali sonlarni yozing.
20. Bir bo'lak simning uzunligi 70 m. Uning ikkala boshidan 32 m dan qirqib olishdi. Simning qolgan bo'lagining uzunligi qancha?



21.



66 so'm



46 so'm



36 so'm


Sovun, pasta va tish cho'tkasi qanchadan turadi?

22. Masalaning qisqa yozuvini qarang va masalani yeching:

Bahosi	Miqdori	Qancha turishi
Bir xil	8 ta qo'g'irchoq	72 so'm
	6 ta qo'g'irchoq	?

23. 15 ta bola o'ynayotgan edi. Oldin 3 ta qiz bola, keyin 2 ta o'g'il bola uyiga ketdi. O'yinda nechta bola qoldi?
24. Yo'ldosh 26 tup atirgulni butashi kerak edi. U 14 tup atirgulni butab bo'ldi. U butab bo'lganidan necha tup kam gulni butashi kerak?

25. Telegraf simida 15 ta chumchuq qo'rib turgan edi. Oltinchi chumchuq uchib ketdi. Simda nechta chumchuq qoldi?
26. Karima 9 ta oddiy va 6 ta rangli marka, hamma markalardan 8 ta ortiq konvert sotib oldi. Karima nechta konvert sotib olgan?
27. Temur 26 ta, Alisher undan 8 ta kam, Yulduz esa Alisherdan 2 marta kam yong'oq terdi. Yulduz nechta yong'oq terdi?
28. Tarvuz, qovun va bir xalta olma sotib olishdi. Olmalar 2 kg. Olmalar tarvuzdan 3 marta yengil, qovun esa olmalardan 2 kg og'ir. Qovunning massasini toping.



29. Uzunligi 24 m bo'lgan arqondan arg'imchoq uchun to'rtdan bir qismini qirqib olishdi. Necha metr arqonni qirqib olishgan?
30. Tikuv ustaxonasida 30 m shoyi bor edi. Bir nechta ko'ylak tikkanlaridan keyin 9 m shoyi qoldi, har bir ko'ylakka 3 m dan shoyi ketdi. Necha ko'ylak tikishgan?

Bor edi	Sarflandi	Qoldi
30 m	?, bir nechta ko'ylakka 3 m dan	9 m

31. Oshxona uchun 8 ta bir xil qog'oz xaltada 16 kg un olishdi. Bir kunda 7 xalta un ishlatishdi. Necha kilogramm un ishlatishgan?

32.



1) Rasmda qanday asboblarni tasvirlangan? Ulardan har birining vazifasi nima?


2) Ustaxona uchun 4 ta asboblarni to'plamini sotib olishdi va ular uchun 20 so'm to'lashdi. Shunday 5 ta to'plam uchun necha so'm to'lash kerak? 40 so'mga shunday to'plamdan nechtasini sotib olish mumkin? Shunday to'plamdan 6 tasini sotib olish uchun 37 so'm yetadimi? Qancha pul ortib qoladi?

33. 1) Berilgan kesmadan 3 marta qisqa kesma chizing:




2) Bu kesmadan 3 sm qisqa kesma chizing.


34.  $AB$ ,  $CD$  va  $MK$  kesmalar uzunligini ko'zda chamlang. Qaysi kesma eng qisqa? Qaysinisi eng uzun? Javobni o'lchash bilan tekshiring:



35. Qaysi kesma vertikal, gorizontal, og'ma chizilgan?



36.  $KD$  to'g'ri chiziq  $ABC$  uchburchakning qaysi tomonlarini kesib o'tgan?



37.




1) Har qaysi shaklning nomini ayting. Har qaysi ko'pburchakning nechtadan burchagi, tomoni va uchi bor?

2) Beshburchakning tomonlari uchburchakning tomonlaridan nechta ortiq? To'rtburchakning uchlari ol-tiburchakning uchlariidan nechta kam?

38. Birinchi son 41, ikkinchi son 56, uchinchi son esa bu ikki sonning yig'indisidan 63 ta kam. Uchinchi sonni toping.

39. Har qaysi chizmadan uchtadan uchburchak toping:



## MUNDARIJA

### Yuzlik

1- sinfda o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish .....	3
18 ichida bir xonali sonlarni o'nlikdan o'tish bilan qo'shish .....	19
18 ichida bir xonali sonlarni o'nlikdan o'tish bilan ayirish .....	38
Yuz ichida xonadan o'tish bilan qo'shish va ayirish .	67

### Ko'paytirish va bo'lish

Ko'paytirish .....	105
Bo'lish .....	114
0, 1, 10 sonlari bilan ko'paytirish va bo'lish .....	129

### Jadvalli ko'paytirish va bo'lish

Ikkinchi ko'paytirish va 2 ga bo'lish .....	141
Uchinni ko'paytirish va 3 ga bo'lish .....	146
To'rtinni ko'paytirish va 4 ga bo'lish .....	155
Amallarning bajarilish tartibi .....	163
Beshinni ko'paytirish va 5 ga bo'lish .....	169
Shakllarning yuzi .....	174
Oltinni ko'paytirish va 6 ga bo'lish .....	178
Yettinni ko'paytirish va 7 ga bo'lish .....	183
Sakkizinni ko'paytirish va 8 ga bo'lish .....	187
To'qqizinni ko'paytirish va 9 ga bo'lish .....	189
O'quv yili bo'yicha o'tilganlarni takrorlash .....	199

122.1

B 68

**Bikbayeva N. U.**

**Matematika:** Umumiy ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik./ N.U.Bikbayeva, E.Yangabayeva.— 8-qayta ishlangan nashri.— T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2008 — 208 b.

I Yangabayeva E.

ББК 22.1 я71

NATALIYA UMAROVNA BIKBAYEVA  
ENAJON YANGABAYEVA

## **MATEMATIKA**

### **2- sinf uchun darslik**

Qayta ishlangan 8-nashri

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent — 2008*

Muharrirlar: *O. Husanov, X. Alimov*  
Rasmlar muharrirlari: *G. Shoabdurahimova, D. Mullaovunov*  
Texnik muharrir *T. Greshnikova*  
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*  
Musahhah *Z. Sodiqova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 21.01.2008. Bichimi 70x100<sup>1/16</sup>.  
Garn. Helvetika. Kegel 15 shponli. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli b.t. 16,77. Nashr. t. 11,0. Umumiy adadi 434575 nusxa.  
Buyurtma №189.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1-uy. Shartnoma № 09—13—08.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

No	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.